2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 32 (1631), 2026-yil 17-fevral, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

BARCHA ISLOHOT VA DASTURLAR, AVVALO, ODAMLAR HAYOTIDA ANIQ NATIJA BERISHI ZARURLIGI QAYD ETILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga eng ustuvor islohotlar dasturlari hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2026-yilda amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi loyihalari yuzasidan axborot berildi.

Qayd etilganidek, mazkur loyihalar ilg‘or xorijiy tajribaga tayanib mutlaqo yangi yondashuv asosida ishlab chiqildi. Ularda Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan joriy yildagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadli ko‘rsatkichlari hamda ularni amalga oshirishning aniq mexanizmlari belgilanmoqda.

Islohotlar dasturlari va Davlat dasturining bir-biridan farqli jihatlariga alohida to‘xtalindi.

Islohotlar dasturlari davlatimiz rahbarining xalqimiz va Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilgari surilgan tashabbuslar va 2026-yil uchun eng ustuvor islohotlarni qamrab olgan.

Bular mahallalar infratuzilmasini takomillashtirish va ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish, iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish hamda ichki bozorda talabni rag‘batlantirish, kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish, ekologik muvozanatni ta’minlash va suvdan oqilona foydalanishni tashkil etish hamda davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish, jamiyatda birdamlikni ta’minlash orqali uni yuksaltirish.

Bu dasturlarda “hujjat ishlab chiqish”dan “natijaga erishish” tamoyiliga o‘tilmoqda. Har bir tashabbusni amalga oshirish mexanizmlari va yil yakuniga mo‘ljallangan ijro natijalari bo‘yicha KPI belgilangan. Dasturlar to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilish mexanizmiga ega va ayrim tashabbuslar bo‘yicha alohida hujjat qabul qilishni talab etmaydi. Har bir islohotlar dasturining ijrosi uchun shaxsan javobgar bo‘lgan mas’ul rahbar va muvofiqlashtiruvchi davlat tashkiloti belgilanmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida esa strategiyaning 2026-yil uchun belgilangan maqsadli ko‘rsatkich-lari ijrosi tashkil etiladi. Dastur bilan 337 ta banddan iborat amaliy chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanmoqda. 2026-yilda sohalar kesimida eng muhim 59 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi va eng muhim strategik islohotlarni nazarda tutuvchi 12 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqiladi.

Loyihalarni ishlab chiqishda jamoatchilik fikrini hisobga olishga alohida e’tibor qaratilgani ta’kidlandi. Davlat dasturi keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilib, 23-yanvar — 1-fevral kunlari ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng targ‘ib qilindi. Internetda loyiha bilan 5 milliondan ziyod foydalanuvchi tanishib, 22 mingdan ziyod fikr-mulohaza va takliflar bildirildi.

Oliygohlar va davlat idoralarida 50 dan ortiq muhokama tadbirlari o‘tkazilib, 10 mingga yaqin talaba, professor-o‘qituvchilar va davlat xizmatchilari ishtirok etdi. Xorijdagi vatandoshlar bilan ham alohida muloqotlar tashkil etilib, qator qo‘shimcha tashabbuslar bildirildi.

Tahlillar natijasida konstruktiv deb topilgan 1000 ga yaqin taklif saralab olinib, Davlat dasturi loyihasiga kiritildi.

Jumladan, ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik uchun jazoni kuchaytirish, pedofiliya uchun umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosini joriy etish, ipoteka va elektromobil xaridi uchun kredit mexanizmlarini takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 30 foizga yetkazish, korrupsiyaga qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqish, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda xalq vakillari hay’ati ishtirokini yo‘lga qo‘yish kabi tashabbuslar qo‘llab-quvvatlandi.

Shuningdek, mahalla mablag‘lari sarfi bo‘yicha ochiq hisobdorlikni kuchaytirish, mahallalarda ichki yo‘llar, piyodalar va veloyo‘laklarni tashkil etish, biznes-inkubatorlar yaratish, sanoat zonalari huzurida kasbiy qayta tayyorlash markazlari ochish, daraxt kesish uchun javobgarlikni qat’iylashtirish, energiya samaradorligi bo‘yicha KPI joriy etish, utilizatsiya va qayta ishlash zanjirini yo‘lga qo‘yish kabi takliflar qiziqarli deb topildi.

Bundan tashqari, AQSH, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Kanada, Koreya, Yaponiya, Shvetsiya, Portugaliya va Qozog‘istonda vatandoshlar ishtirokida muhokamalar tashkil etilib, 60 ga yaqin qo‘shimcha takliflar olindi.

Xorijdagi vatandoshlar nodavlat maktab-lar faoliyatini rivojlantirish uchun aniq, barqaror va shaffof litsenziyalash hamda nazorat mexanizmlarini joriy etish, amaliyot jarayonida o‘quvchilarni yo‘naltiruvchi korxona mutaxassislari uchun rag‘batlantirish va mas’uliyat tizimini tatbiq qilish, bachadon bo‘yni va ko‘krak bezi saratoni bo‘yicha xavf guruhlarini aniq belgilaydigan yagona raqamli skrining tizimini joriy etish, imtiyozli kreditlarni ajratishda “natijaga bog‘langan imtiyoz” (performance-based subsidy) modelini, eksport qiluvchi korxonalar uchun esa “Export-as-a-service” modelini joriy qilish, ya’ni logistika, bojxona, sertifikatlash, marketing va to‘lov masalalarini yagona operator orqali kompleks xizmat sifatida taqdim etish, advokatlar uchun elektron navbat olish jarayoni bo‘yicha qo‘llanma va videoyo‘riqnomalar tayyorlash kabi takliflarni bildirgan.

Dasturlar ijrosini moliyalashtirishga jami 250,5 trillion so‘m ajratilishi va 50,4 milliard dollar mablag‘ jalb qilinishi ko‘zda tutilgan.

Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha Adliya vazirligi va Hisob palatasi doimiy monitoring olib boradi, Vazirlar Mahkamasi har chorakda ijroni muhokama qiladi, har yarim yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hisobot hamda har oy Prezidentga axborot kiritib boriladi.

Har bir islohotlar dasturi uchun biriktirilgan mas’ullar har chorakda ijro holati yuzasidan Prezidentga axborot berib boradi. Bosh vazir islohotlar dasturlaridagi tashabbuslarning amalga oshirilishi va moliyalashtirilishini muvofiqlashtirib, ijroni qat’iy nazoratga olish uchun mas’ul bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari taqdimot qilingan loyihalar bilan batafsil tanishdi, tegishli farmonni imzolab, islohotlar dasturlari va “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” Davlat dasturini tasdiqladi. Barcha islohot va chora-tadbirlar, avvalo, odamlar hayotida aniq natija berishi — yangi ish o‘rinlari ko‘payishi, daromadlar o‘sishi va aholi roziligida o‘z aksini topishi zarurligi qayd etildi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARIDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 17-19-fevral kunlari Tinchlik kengashining dastlabki yig‘ilishida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Vashington shahrida bo‘ladi.

Kengashning birinchi sammiti AQSH Tinchlik institutida bo‘lib o‘tadi hamda G‘azo sektorini tiklash va unga gumanitar yordam ko‘rsatish, ushbu mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash masalalariga bag‘ishlanadi.

Tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida davlatimiz rahbari Amerikaning yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari rahbarlari ishtirokidagi strategik loyihalar taqdimoti hamda iqtisodiy sohaga oid ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimida ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

Eslatib o‘tamiz, Tinchlik kengashi AQSH Prezidenti Donald Tramp tashabbusi bilan tashkil etilgan. O‘zbekiston joriy yil yanvar oyida Shveysariyaning Davos shahrida unga ta’sischi davlat sifatida qo‘shildi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

MUBORAK RAMAZON OYINI MUNOSIB TARZDA O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

Keyingi yillarda mamlakatimizda inson qadri, huquq va manfaatlarini ta’minlash, jamiyatimizda tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, ehtiyojmand toifalarni ijtimoiy himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimiz tufayli muqaddas islom dinining insonparvarlik mohiyati, o‘zaro ahillik, saxovat va shukronalik g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan muborak Ramazon oyi xalqimiz qalbiga yanada yaqin va mo‘tabar ayyomga aylanmoqda.

Ijtimoiy-ma’naviy hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotgan Ramazon oyini munosib kutib olish va yuqori saviyada o‘tkazish, diniy-ma’rifiy, madaniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug‘lash maqsadida:

1. 2026-yilda muborak Ramazon oyining boshlanishi **19-fevral** kuniga to‘g‘ri kelishi haqidagi O‘zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda mamlakatimizda Ramazon oyini **milliy an’ana va qadriyatlarga mos tarzda** o‘tkazishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

“Ramazon — mehr-muruvvat, ahillik va shukronalik oyi” degan ezgu g‘oya asosida:

kam ta’minlangan, ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

mahallalarni o‘zaro hurmat, hamjihatlik, adolat va tarbiya maskaniga aylantirish;

yer, suv, havo va tabiiy muhitni asrash, muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh va qabristonlarni obod etish;

Ramazon oyi bilan bog‘liq tadbirlarni isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymasdan, ixcham, mazmunli va tejamkorlik asosida o‘tkazishga alohida e’tibor berilsin.

3. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniya-si, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon oyini o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.Q.Davletov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2026-yil 16-fevral

BIRINCHI MILLIY SUN’IY YO‘LDOSHNI YARATISH VA FAZOGA UCHIRISH BO‘YICHA LOYIHALAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev kosmosga sun’iy yo‘ldosh uchirish hamda birinchi o‘zbek fazogirini tayyorlash bo‘yicha dastlabki ishlar taqdimoti bilan tanishdi.

Ta’kidlanganidek, bugun dunyoda raqobat yangi bosqichga chiqib, iqtisodiy qudrat tabiiy boyliklar bilan emas, intellektual salohiyat va texnologiyalar bilan o‘lchanmoqda. Kosmik texnologiyalar esa strategik ahamiyatga ega yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Mamlakatimizda kosmik ma’lumotlardan foydalanish boshlanganiga ko‘p vaqt o‘tmagan bo‘lsa-da, qisqa vaqt ichida sezilarli amaliy natijalarga erishildi. Davlat kosmik monitoringi ishga tushirilib, ushbu tizim proaktiv ravishda ishlamoqda.

Shu bilan birga, so‘nggi besh yilda masofadan zondlash ma’lumotlariga talab 3 karra oshgani, hozirda kosmik monitoring bilan 10 dan ziyod davlat idoralari va barcha hokimliklar ishlayotgani ko‘rsatib o‘tildi.

— Eng muhimi, kosmik ma’lumotlar orqali biz “ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan” iqtisodiy imkoniyatlarni aniqlab, ularni real daromad manbaiga aylantiryapmiz. Bu davlat resurslarini boshqarish mexanizmi va madaniyati o‘zgarayotganidan dalolat, — dedi Prezidentimiz.

Shu bilan birga, kosmik sohada uzoq muddatli va barqaror milliy tizim — sun’iy yo‘ldoshlarni boshqarish, ma’lumotlarni qayta ishlash va ulardan amaliyotda foydalanish infratuzilmasini shakllantirish muhim ekani qayd etildi. Bundan maqsad mamlakatimiz suveren va obyektiv ma’lumotlar manbaiga ega bo‘lishidir.

Hozirgacha xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilib, bo‘lajak sun’iy yo‘ldoshning aniqligi va foydali yuklamasiga doir texnik talablar aniqlandi.

Taqdimotda ilmiy-texnologik salohiyatni oshirish doirasida birinchi milliy ilmiy sun’iy yo‘ldoshni yaratish loyihasi ham ko‘rib chiqildi. Loyiha doirasida mutaxassislarni tayyorlash va muhandislik jamoasini shakllantirish, 2028-yilda “Mirzo Ulug‘bek” nomli 6U formatdagi ilmiy sun’iy yo‘ldoshni uchirish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan birinchi milliy kosmonavtni tayyorlash va uni fazoga uchirish strategik vazifa sifatida belgilangan.

— Bu shunchaki ramziy qadam emas, balki mamlakatimiz ilmiy salohiyati, yoshlarimiz orzusi va milliy g‘ururimiz ifodasi bo‘ladi, — dedi Prezidentimiz.

Milliy fazogirni qisqa muddatga — 10-14 kunlik parvozga tayyorlash taklif qilindi, bunday parvozlarni tashkil etish bo‘yicha xalqaro hamkorlik istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Kosmonavtni fazoga uchirish aniq ilmiy dasturni amalga oshirish bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi zarurligi qayd etildi. Zero, bu yutuq mamlakatimizning xalqaro nufuzini oshirishi bilan birga ilmiy salohiyatni rivojlantirish, yangi loyiha va texnologik tashabbuslarning paydo bo‘lishi, yoshlarning fan va texnologiyalarga qiziqishi ortishiga xizmat qilishi kerak.

O‘zbekiston kosmonavti fazoda bo‘lishi davrida olib borilishi mumkin bo‘lgan tadqiqotlar yo‘nalishi sifatida tibbiyot va biologiya (masofaviy tashxis qo‘yish, mahalliy dorivor ekstraktlar samaradorligini o‘rganish), o‘simliklar genetikasi (qurg‘oqchilik va sho‘rlanishga chidamli navlarni sinash, yopiq agrobiotizimlar modeli), materialshunoslik (issiqlikni to‘plash va boshqarish uchun materiallar, mato va tolalarni sinovdan o‘tkazish) taklif qilindi.

2028-yilda Samarqand shahrida kosmos bo‘yicha xalqaro kongress o‘tkazish masalalariga ham to‘xtalib o‘tildi. Unda AQSH, Yevropa, Xitoy, Hindiston, Rossiya va bosh-qa davlatlarning yetakchi kosmik tashkilotlari ishtirok etishga qiziqish bildirgan.

Mas’ullarga ushbu xalqaro tadbirga yuksak saviyada tayyorgarlik ko‘rish topshirildi.

Taqdimot yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev sun’iy yo‘ldoshlar loyihalari va milliy fazogirni tayyorlash bo‘yicha hisob-kitob hamda amaliy takliflarni puxta ishlab chiqish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘zA

RAMAZON OYIDA SAXOVAT VA HAMJIHATLIK QADRIYATLARI AMALIY ISHLAR BILAN MUSTAHKAMLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 16-fevral kuni Ramazon oyida ehtiyojmand aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda inson qadrini ulug‘lash, aholini ijtimoiy himoya qilish va adolatli jamiyat barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilganidek, O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida fuqarolar farovonligini ta’minlash, ehtiyojmand qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va jamiyatda mehr-oqibat muhitini kuchaytirishni ustuvor vazifa deb biladi. Mazkur tamoyillar, ayniqsa, Ramazon oyida yanada yorqin namoyon bo‘lib, saxovat va hamjihatlik qadriyatlari amaliy ishlar bilan mustahkamlanmoqda.

Davlatimiz rahbari muborak oyda nuroniylar, yolg‘iz va ehtiyojmand fuqarolar holidan xabar olish, og‘ir ahvolga tushib qolgan oilalarga amaliy ko‘mak berish ezgu qadriyat ekanini ta’kidladi.

Yig‘ilishda shu maqsadda ishlab chiqilgan “Ramazon — mehr-muruvvat, ahillik va shukronalik oyi” shiori ostidagi kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida axborot berildi. Ularni amalga oshirish uchun “Vaqf” xayriya jamoat fondiga 750 milliard so‘m hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligi orqali 300 milliard so‘m ajratilishi belgilandi.

Ajratiladigan mablag‘lar hisobidan ehtiyojmand oilalarga bir martalik moddiy yordam ko‘rsatish, nogironligi bor shaxslarning davolanish va jarrohlik amaliyotlari xarajatlarini qoplab berish ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz joriy yil yanvar oyida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bugun turli radikal va ekstremistik g‘oyalar axborot texnologiyalari orqali yoshlarimiz ongini zaharlashga urinayotgani, faqat jazo va taqiq bilan bu muammoni hal qilib bo‘lmasligini ta’kidlagan edi.

Ayni damda Prezidentimiz jamiyat onalari va kelajak avlod tarbiyachilari bo‘lgan xotin-qizlarni buzg‘unchi g‘oyalar ta’siridan asrash, ularni ham ma’nan, ham moddiy qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida urg‘u berdi.

Bu jarayonda yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan shaxslarni ijtimoiylashtirish, moddiy qo‘llab-quvvatlash, ularning oilalari bilan individual tarzda ishlab, tibbiy va psixologik yordam ko‘rsatish hamda kasb-hunarga o‘rgatish orqali bandligini ta’minlash zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Prezidentimiz har bir mahallada ehtiyojmand oilalarning aniq va shaffof ro‘yxatini shakllantirish, yordamlarni fuqarolarning dini, millati va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, teng va adolatli tarzda yetkazish shartligini alohida ta’kidladi. Mas’ul idoralarga bu borada qat’iy nazorat o‘rnatish topshirildi.

O‘zA

QISHLOQ XO‘JALIGI:

Munosabat

HAYOT TOMIRI, YURT RIZQ-RO‘ZI, XALQ FAROVONLIGINING ZAMINIDIR

Joriy yil 13-fevral kuni Prezidentimizning Ohangaron tumaniga tashrifi davomida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ko‘plab fikrlar aytilib, mutasaddilar zimmasiga qator vazifalar yuklandi. Ushbu yangi topshiriqlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari taraqqiyoti uchun belgilangan maqsadlar nafaqat raqamlar va ko‘rsatkichlardan iborat, balki ular ortida xalqimizning farovonligi, fermer va tadbirkorlar uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar hamda zamonaviy texnologiyalarning amaliyotga tatbiqini ko‘rish mumkin.

Agrar soha shunchaki iqtisodiyot tarmog‘i emas, aksincha, hayot tomiri, yurtning rizq-ro‘zi, xalq farovonligining mustahkam tayanchidir. Shu ma’noda, bugun qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni zamon bilan hamnafas taraqqiyot sari qo‘yilgan jasoratli qadamlar, desak xato bo‘lmaydi. Binobarin, mazkur sohaga tegishli har bir qaror, har bir yangi tashabbus dalalarda ungan hosil kabi kelajakka ishonchni yanada mustahkamlamoqda.

Qishloq xo‘jaligining 2026-yil uchun o‘sish prognozi 4,2 foiz etib belgilangan edi. Biroq qo‘shimcha imkoniyat va resurslar chuqur tahlil qilinib, hozirgi salohiyat qayta sarhisob qilindi. Natijada joriy yilda sohadagi o‘sish sur’atini 6 foizga yetkazish belgilandi. Bu 571 trillion so‘mlik yalpi mahsulot hajmi, qo‘shimcha 32 trillion so‘mlik o‘sish demakdir.

Davomi 3-betda

Hudud ahli tomorqadan samarali foydalanib, yiliga uch marta hosil oladi. Natijada 1 sotix yer o‘rtacha 5 million so‘m daromad keltiryapti. Bu esa oila byudjetini mustahkamlab, bandlik darajasini ham oshirmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 17-fevral, 32-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON TINCHLIK KENGASHI DOIRASIDA KONSTRUKTIV TASHABBUSLARNI ILGARI SURISHNI MAQSAD QILGAN

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-19-fevral kunlari AQSHga tashrif buyurib, muloqotni rivojlantirish hamda dolzarb global va mintaqaviy mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish uchun ko‘p tomonlama platforma sifatida tashkil etilgan yangi xalqaro tuzilma — Tinchlik kengashining birinchi majlisida ishtirok etadi.

2026-yil yanvar oyida Davosda bo‘lib o‘tgan Jahon iqtisodiy forumida Tinchlik kengashi ta’sis shartnomasini imzolash marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda davlatlar, hukumatlar rahbarlari va qator ta’sischi mamlakatlar vakillari ishtirok etdi.

Yil boshida ilgari surilgan ushbu tashabbus qator davlatlar, jumladan, Kengash ta’sischilari qatoriga kirgan O‘zbekiston tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanishi tinch diplomatiya, ko‘p tomonlama hamkorlik va xalqaro barqarorlikni saqlash uchun mas’uliyat tamoyillariga sodiqlikni tasdiqlaydi.

Tinchlik kengashining tashkil etilishi xalqaro hamjamiyatning mojarolarni oldini olishning ta’sirchan mexanizmlarini shakllantirish va hozirgi zamonning, eng avvalo, Yaqin Sharq mintaqasidagi eng o‘tkir inqirozlarning siyosiy-diplomatik yechimlarini izlash borasidagi sa’y-harakatlarining mantiqiy davomi bo‘ldi.

O‘zbekistonning ushbu tuzilmani ta’sis etishdagi ishtiroki Toshkentning muloqot, xalqaro huquqni hurmat qilish va kuch senariylariga yo‘l qo‘ymaslik g‘oyalarini ilgari surishga qaratilgan izchil tashqi siyosatini aks ettiradi. Davlatimizning BMT rezolyutsiyalariga muvofiq, adolatli va barqaror tinchlik yechimini qo‘llab-quvvatlashga asoslangan Falastin masalasi bo‘yicha pozitsiyasi ushbu tashabbus doirasida qo‘shimcha xalqaro ruh oldi.

Davlatimiz rahbarining Tinchlik kengashining birinchi yig‘ilishida ishtirok etishi so‘nggi oylarda kuzatilayotgan O‘zbekiston — AQSH siyosiy muloqotining faollashuviga hamohangdir. O‘tgan yarim yil ichida Toshkent va Vashington o‘rtasidagi oliy darajadagi muloqotlar sezilarli darajada faollashdi. Bu ikki tomonlama munosabatlarning sifat jihatidan yangi bosqichidan dalolat beradi.

Xususan, o‘tgan yil sentabr oyida O‘zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi sessiyasida ishtirok etish uchun Nyu-York shahriga tashrif buyurdi. Unda davlat rahbarlari va xalqaro tashkilotlar yetakchilari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi, global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Muloqot 2025-yil noyabr oyi boshida O‘zbekiston Prezidentining Qo‘shma Shtatlarga amaliy tashrifi chog‘ida yanada rivojlandi. AQSH Prezidenti bilan muzokaralar, Amerika Kongressi va ishbilarmon doiralari vakillari bilan uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi. Tashrif doirasida strategik sheriklik, iqtisodiy-investitsiyaviy hamkorlik va mintaqaviy xavfsizlik masalalariga, shu jumladan, tomonlar Markaziy Osiyodagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishning samarali mexanizmi sifatida ko‘rayotgan “C5+1” formatiga alohida e’tibor qaratildi.

Toshkent va Vashington o‘rtasidagi aloqalar turli formatlarda, jumladan, telefon orqali muloqotlar va tegishli idoralar o‘rtasidagi hamkorlikda qo‘llab-quvvatlandi. Iqtisodiy muloqotning kengayishi va biznes hamkorligi uchun yangi platformalarning yaratilishi ishonch mustahkamlanayotganining qo‘shimcha dalili bo‘ldi. Bu amaliy hamkorlikni chuqurlashtirishdan ikki tomon ham manfaatdorligini aks ettiradi. Qo‘shma Shtatlarda O‘zbekistonga vazmin va pragmatik tashqi siyosat olib borayotgan ishonchli, oldindan aytish mumkin bo‘lgan va mas’uliyatli hamkor sifatida qarash tobora barqaror tus olmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonning Tinchlik kengashidagi ishtiroki mamlakatning xalqaro nufuzi ortib borayotgani va uning global jarayonlardagi konstruktiv roli e’tirof etilayotgani ifodasi sifatida baholanmoqda. Vashington uchun bu, Toshkent Yevroosiyo va undan tashqarida tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surishda muhim hamkor ekanining tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladi.

Siyosiy muloqot faollashgani fonida O‘zbekiston — AQSH hamkorligi muhim yo‘nalishlarda kengayib bormoqda. Gap mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi hamkorlik, O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash, savdo va investitsiyalarni rivojlantirish, gumanitar va ta’lim aloqalarini chuqurlashtirish haqida bormoqda. Energetika, raqamlashtirish, infratuzilma va kadrlar tayyorlash borasidagi qo‘shma loyihalar uzoq muddatli sheriklik uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Shunday qilib, O‘zbekiston Prezidentining Tinchlik kengashining bo‘lajak birinchi yig‘ilishida ishtirok etishi nafaqat mamlakatning xalqaro muloqotning yangi arxitekturasini shakllantirishdagi faol rolini ta’kidlaydi, balki O‘zbekiston — AQSH munosabatlarining ijobiy dinamikasini to‘ldiradi. AQSHga ushbu tashrif, shubhasiz, rasmiy Toshkent va Vashington o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni har ikki tomon manfaatlariga, mintaqada va umuman dunyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash vazifalariga javob beradigan barqaror strategik darajaga olib chiqishga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

> **Davlatimiz rahbarining Tinchlik kengashining birinchi yig‘ilishida ishtirok etishi so‘nggi oylarda kuzatilayotgan O‘zbekiston — AQSH siyosiy muloqotining faollashuviga hamohangdir. O‘tgan yarim yil ichida Toshkent va Vashington o‘rtasidagi oliy darajadagi muloqotlar sezilarli darajada faollashdi. Bu ikki tomonlama munosabatlarning sifat jihatidan yangi bosqichidan dalolat beradi.**

Mahalla o‘zgarsa — jamiyat o‘zgaradi

Tong. Quyosh nurlari hali yerni iliq quchog‘iga olmay turib, G‘allaorol ko‘chalarida harakat, xonadonlarda yangi kunga tayyorgarlik zavqi boshlanadi. Bir paytlar ishsizlik, umidsizlik bilan yuzma-yuz kelgan, ertangi kundan xavotirda yashagan ko‘plab oilalar bugun xotirjam, xursand holda kelajakka katta rejalar tuzyapti.

ISLOHOTLAR SAMARASI RAQAMLARDA EMAS, INSONLAR TURMUSHIDA NAMOYON BO‘LYAPTI

Bu ijobiy o‘zgarishlar aholini ish bilan ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan davlat siyosatining mahalla kesimidagi aniq va sezilarli samarasidir. Mahallada yaratilgan sharoitlar odamlarni harakatga, izlanishga undamoqda.

Kambag‘allikni qisqartirishda manzilli ijtimoiy yordam tizimi joriy qilingani va ehtiyojmand aholi qatlami aniq hisobga olinayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yangi ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunarga o‘qitish va qayta tayyorlash dasturlari aholining mehnat bozorida faol ishtirok etishiga xizmat qilyapti. “Har bir oila — tadbirkor”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” kabi tashabbuslar orqali kam ta’minlangan oilalarga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va amaliy yordam ko‘rsatilmoqda. Bu esa aholining o‘zini o‘zi band qilishi va barqaror daromad topishiga zamin yaratayotir.

Shuningdek, hududlarda infratuzilmani rivojlantirish, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirish orqali mehnat resurslaridan samarali foydalanish ta’minlanmoqda. Natijada, mahallalarda nafaqat iqtisodiy faollik, balki ijtimoiy muhit, o‘zaro hamjihatlik va kelajakka bo‘lgan ishonch ham tobora mustahkamlanmoqda. Buni G‘allaorol tumani misolida ham ko‘rish mumkin.

— G‘allaorol tumanida sanoat, ishlab chiqarish va eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha boy tajriba shakllangan, — deydi tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman moliya-iqtisodiyot bo‘limi boshlig‘i Asil Abdujalilov. — Mazkur salohiyatdan unumli foydalanish, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishga e’tibor qaratyapmiz. Misol uchun, 2025-yil boshida tumanimizda kambag‘allik darajasi 11,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, yil oxirida ushbu ko‘rsatkich 4,5 foizgacha pasaydi.

O‘tgan yilning boshida 4638 ta oila kambag‘allik reyestriga kiritilib, ularga 100 nafar rahbar biriktirildi. Mazkur tizim orqali har bir oilaning muammosi alohida o‘rganilib, ish bilan ta’minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, kredit va subsidiyalar ajratish kabi aniq choralar ko‘rildi. Natijada bandlik dasturi doirasida 17 ming 400 nafar aholini ish bilan ta’minlash rejalashtirilgan edi. Amalda esa 21 ming 700 nafar fuqaroni ishga joylashtirib, rejani 125 foizga bajardik. Tumanimizda ishsizlik darajasi 6 foizdan 4,5 foizga tushdi.

Tuman ahli bilan suhbat chog‘ida raqamlar ortida aniq taqdirlar, mehnat orqali hayoti o‘zgargan oilalar turganiga amin bo‘ldik. Sarbozor mahallasida yashovchi Diyor Mamatqulov shunday insonlardan biri. Ilgari ishsiz bo‘lgan Diyor hozir bedana boqib, daromad topmoqda. U avvaliga mingta bedana bilan faoliyat boshlagan edi. Hozirda bedanalar soni 7 mingtaga yetgan. Qahramonimizga mahalla raisi va hokim yordamchisi ko‘magida inkubator olib berilgani bois, ish ko‘lami yanada kengaygan. Hozir u bir oyda o‘rtacha 15 million so‘m sof daromad olmoqda.

Ahamiyatlisi, ushbu daromad moddiy farovonlikni ta’minlash bilan birga oilaviy qadriyatlarning yanada mustahkamlanishiga ham xizmat qilmoqda. Diyorning orzularidan biri otasiga zamonaviy avtomobil sovg‘a qilish.

— Mashinani otamning halol mehnat bilan biz — farzandlarni voyaga yetkazganiga bo‘lgan ehtirom sifatida sovg‘a qilmoqchiman. Sovg‘ani yangi yilgacha olib bermoqchi edim, ammo ozgina mablag‘im yetmadi. Bu niyatimdan mahallamiz hokim yordamchisi va ba’zi yaqin do‘stlarim xabardor edi. Ular menga kredit yoki bo‘lib berish sharti bilan olish mumkinligini aytdi. Lekin bir oy kechroq bo‘lsa ham naqd pulga, halol mehnat haqqim hisobiga sovg‘a qilishga qaror qildim, — deydi Diyor.

Uning bu niyati jamiyatimizda mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat va halol rizq kabi qadriyatlar boqiyligining yorqin ifodasi deyish mumkin. Bu, o‘z o‘rnida, aholini kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan islohotlar inson taqdirida qanday ijobiy o‘zgarishlar yaratayotganini ham ko‘rsatadi.

— Diyor Mamatqulovning yutug‘i, tajribasi mahalladagi boshqa yoshlar va ishsiz fuqarolar uchun ham ibrat bo‘lyapti, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Anvar Mamarasulov. — “Men ham uddalay olaman” degan ishonch bilan ish boshlayotgan oilalar ko‘paymoqda. Hozir bir qancha yoshlar unga shogird tushib, bedanachilik yo‘nalishini kengaytirish hamda Sarbozor mahallasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shyapti.

Darhaqiqat, mahallada kim bilan suhbatlashmang, “Harakat bor joyda baraka bor” degan fikrni eshitasiz. Bu so‘zlar endi shunchaki maqol emas, balki kundalik hayotda o‘z isbotini topayotgan haqiqatga aylangan. Tomorqalarda mehnat qaynagan, xonadonlarda oilaviy tadbirkorlik rivojlanib, yoshlar mehnatda o‘z o‘rnini topmoqda.



— Sarbozor mahallasida mehnatsevarlik, tadbirkorlik ruhi va o‘zaro hamjihatlik qadriyat darajasiga ko‘tarilgan, — deydi “Sarbozor” MFY raisi Umida Hasanova. — Xizmat ko‘rsatish va dehqonchilik sohalarining uyg‘un rivojlanishi mahalla aholisining farovon hayot kechirishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Mahallamiz qadim Buyuk ipak yo‘li yoqasida joylashgan, savdo do‘konlari va bozorlar bo‘lgan. Hozir ham mahallamiz Toshkent-Termiz M-39 xalqaro magistral yo‘l yoqasida joylashgan. Tarixan mahallaning asosiy ixtisosligi xizmat ko‘rsatish va dehqonchilik bo‘lib kelgan. Unda 5415 nafar aholi istiqomat qiladi. Ular asosan tadbirkorlik, hunarmandchilik, chorvachilik bilan mashg‘ul. O‘tgan yili 75 nafar fuqaro ishsiz sifatida ro‘yxatga olingan edi. Hozir barchasining bandligi ta’minlangan.

Hudud ahli tomorqadan samarali foydalanib, yiliga uch marta hosil oladi. Natijada 1 sotix yer o‘rtacha 5 million so‘m daromad keltiryapti. Bu esa oila byudjetini mustahkamlab, bandlik darajasini ham oshirmoqda. Shulardan biri Abdurauf Bo‘ronov. U xonadonida ko‘chatchilik va chorvachilikni yo‘lga qo‘ygan. Shuning evaziga 7 nafar fuqaroni doimiy, 15 nafarini esa mavsumiy ish bilan ta’minladi. Xonadonida 50 dan ortiq turli mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari yetishtiriladi. Ko‘chatlardan yiliga 100-150 million so‘m atrofida sof daromad topadi. Shuningdek, u 25-30 bosh yirik shoxli mol boqib, bozorga sifatli go‘sht yetkazib beryapti. Chorvachilikdan oyiga 15-20 million so‘m sof daromad oladi.

Bunday ijobiy o‘zgarishlarni tumanning boshqa mahallalarida ham kuzatish mumkin. Marjonbuloq mahallasida 2025-yil boshida kambag‘allik darajasi 12 foiz edi. Hozir bu ko‘rsatkich 4,4 foizga tushdi. O‘tgan yili 42 ta loyiha amalga oshirilib, qariyb 2 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratildi. Natijada 100 nafardan ortiq fuqaro doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi, 356 nafar aholi o‘zini o‘zi band qildi.

— Mulkush mahallasida ham aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi islohotlar samara beryapti, — deydi hokim yordamchisi Odil No‘monov. — Mahallamizda 4305 nafar aholi yashaydi. Shundan 1869 nafari ish bilan band. Ayni paytda 43 ta kambag‘al oila va 54 nafar ijtimoiy reyestrdagi fuqaro bilan manzilli ish olib boryapmiz. Qishloq xo‘jaligi hududning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirda 60 ta issiqxona faoliyat yuritmoqda. 2025-yilda 15 ta yangi issiqxona qurildi. Joriy yil oxiriga qadar yana 15 tasini barpo etishni reja qilganmiz. Tomorqadan unumli foydalanish yo‘lga qo‘yilib, aholi bir yilda uch marta — ertaki, takroriy va to‘qsonbosti ekinlardan hosil olmoqda. Mahallaning asosiy ixtisoslashuvi dehqonchilik va chorvachilik bo‘lib, qo‘shimcha ravishda bog‘dorchilik va sabzavotchilik ham rivojlanmoqda. Hozir 100 ta xonadon dehqonchilik, 150 ta xonadon chorvachilik bilan shug‘ullanadi.

O‘tgan 2025-yilda oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 48 ta loyihaga jami 771 million so‘m kredit ajratildi. Ular issiqxona, bog‘dorchilik, qishloq xo‘jaligi va tikuvchilik yo‘nalishlarini qamrab oldi. “Biznesga birinchi qadam” dasturi doirasida 10 ta loyihaga 170 million so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha 43 ta oila bilan manzilli ish olib borilmoqda.

— Hozirgi issiqxona o‘rni tashlandiq, tikon bosgan yer edi, — deydi mahallaning Ipak yo‘li ko‘chasida yashovchi Abduhoshim Abulqosimov. — “Mahalla yettiligi” tavsiyasi bilan ko‘chamiz namunaviy ko‘chaga aylantirildi. Uyimiz to‘g‘risidagi yerni issiqxona qurish uchun berdi. Ko‘chamizdan o‘n kishi issiqxona qurdi. O‘tgan yili birinchi ekinga pomidor, ikkinchi ekinga bodring ekdim. Oilaviy mehnat qilib, yaxshigina daromad qildik. Hozir yangi ekin ekishga tayyorgarlik ko‘ryapmiz. Bundan tashqari, chorvachilik bilan ham shug‘ullanamiz. Hukumatimizga rahmat, o‘tgan yili ekinlarni sug‘orish uchun mahallamizga lotokda suv keltirildi. Yerlarimiz hosildor, mehnat qilgan kam bo‘lmayapti. Chet elga ishlashga ketgan ko‘plab yoshlarimiz ham oilasi bag‘riga qaytib, halol mehnat qilib daromad topyapti.

G‘allaorol tumani mahallalaridagi bu o‘zgarishlar aholi turmush darajasini oshirish, mehnat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar aniq natija berayotganidan darak.

Darhaqiqat, kambag‘allikni qisqartirish va aholini ish bilan ta’minlash borasidagi ishlar raqamlarda emas, insonlar hayotidagi o‘zgarishlarda aks etayotir. Mahalla islohotlarning eng ta’sirchan bo‘g‘iniga aylanib, aholining daromadi oshib, ishsizlik qisqarmoqda. Muhimi, odamlar ertangi kunga ishonch bilan yashayapti.

Farhod NE’MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Raqamli qishloq xo‘jaligi” yagona integratsiya platformasi ishga tushirilishi natijasida 100 dan ortiq xizmat va 30 dan ziyod axborot tizimi yagona nuqtada birlashtiriladi.

Munosabat

QISHLOQ XO‘JALIGI: HAYOT TOMIRI, YURT RIZQ-RO‘ZI, XALQ FAROVONLIGINING ZAMINIDIR

Ibrohim ABDURAHMONOV, qishloq xo‘jaligi vaziri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Boshlanishi 1-betda

Albatta, bunga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Buning ortida minglab fidoyi fermerlar, zahmatkash dehqonlarning tinimsiz mehnati, sohadagi olim va tadqiqotchilarning yangi navlar seleksiyasi, innovatsion ishlanmalar, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, rivojlangan davlatlar tajribasini o‘zlashtirish hamda ilmiy yondashuvlarni amaliyotga joriy etishdek qat’iy islohotlar turibdi. Biroq bugungi agrar islohotlar yerga munosabatni o‘zgartirmoqda, dehqon mehnatiga yangi mazmun bag‘ishlamoqda. Ilm-fan yutuqlari, raqamli texnologiyalar, zamonaviy texnika va innovatsion yondashuvlar qishloq xo‘jaligini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Dala va laboratoriya, fermer va olim, an’ana va innovatsiya — barchasi yagona maqsad yo‘lida birlashyapti.

Har bir sohada zabt etilishi lozim bo‘lgan cho‘qqiga chiqib borish, yangi marralarni egallashda hududlardagi sharoitlar, ichki va foydalanilmagan imkoniyatlarini e’tiborga olish muhim. Shu bois, ishlab chiqilgan prognozlarda har bir hududning “o‘sish nuqtalari”, foydalanilmagan imkoniyatlari va qo‘shimcha manbalarini inobatga olishga alohida e’tibor qaratildi.

Yo‘nalishlar bo‘yicha oladigan bo‘lsak, joriy yilda dehqonchilik mahsulotlari 262,8 trillion so‘mni, chorvachilik mahsulotlari 275,9 trillion so‘mni tashkil etishi ko‘zda tutilgan. Asosiy turdagi mahsulotlar bo‘yicha yuqori marralar belgilangan. Jumladan, bu yil 11 million tonna donli ekin, 4,5 million tonna paxta, 14,7 million tonna sabzavot, 4,5 million tonna kartoshka, 3,5 million tonna poliz mahsulotlari, 3,8 million tonna meva yetishtirish rejalashtirilgan.

Bu ko‘rsatkichlar yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ichki bozorda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz va barqaror ta’minlash hamda eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Birinchi chorak — yil taqdirini hal qiluvchi davr

Agrar sohada yilning birinchi choragi shunchaki uch oy emas. Bu davr bobodehqonlar yilning qanday kelishini tabiatdagi uyg‘onish jarayonlari va turli hisob-kitoblar orqali aniqlab, tadorigini ko‘radigan, shunga qarab yaxshi niyat bilan yerga baraka urug‘i qadaladigan, har bir qarich yerda mehnat va umid uyg‘unligi namoyon bo‘ladigan vaqtdir. Shu bois, bu davr — butun yil taqdirini belgilaydigan, rejalarni amaliyotga aylantiradigan, g‘oyalarni hosilga aylantirishga tayyorlaydigan hal qiluvchi bosqich.

Bu davrdagi har bir fidoyi harakat, har bir ilg‘or texnologiya va har bir fermerning intilishi nafaqat hosildorlikni oshirish, balki mamlakat farovonligi va xalq hayotida barqaror taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yilning birinchi choragida samarasini yaqqol ko‘rsatadi.

Shu sababli joriy yilning birinchi choragida 55,8 trillion so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish (xizmatlari ko‘rsatish) ko‘zda tutilgan. Bular yillik 6 foizli o‘sish marrasi sari dadil qadam bo‘ladi.

Chorvachilik aholining kundalik ehtiyojini ta’minlaydigan eng muhim tarmoqlardan. Bugun mazkur sohada naslchilikni yaxshilash, ozuqa bazasini mustahkamlash va sanoatlashgan fermerlikni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samara bermoqda. Aynan chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) yetishtirishdagi o‘sish aholi iste’molidagi asosiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Sabzavot va meva yetishtirish hajmining oshishi esa bahor oylarida bozorda mahsulotlar tanqisligining oldini oladi.

Bugun g‘o‘zachilikdagi islohotlar paxtani xomashyo sifatida yetishtirishdan tortib, yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotga aylantirishgacha bo‘lgan butun zanjirni qamrab olmoqda. Intensiv usullar, zamonaviy texnika va ilmiy yondashuvlar tufayli paxtachilik mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu o‘zgarishlar nafaqat hosildorlikni oshirish, balki yurtimizning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Hozir 888 ming gektar g‘o‘za maydonlarida intensiv ekish sxemalarini joriy etishga tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Shundan 500 ming gektarda yuqori hosilli, sho‘r va suvsizlikka chidamli xorijiy navlar ekish rejalashtirilgan. Shuningdek, Shinjon tajribasi asosida 300 ming gektarda chigit ekish ishlari tashkil etilmoqda. Mexanizatsiyalash darajasini oshirish uchun 800 ta paxta terish mashinasi, 450 ta ko‘p funksiyali seyalka va 2000 ta boshqa agregatlarni xarid qilish ishlari boshlandi.

Intensiv bog‘dorchilik — yuqori qiymatli mahsulotlar manbai

30 ming gektar yangi intensiv bog‘ va tokzor barpo etish, 15 ming gektarini rekonstruksiya qilish rejasi doirasida birinchi chorakda yer tanlash, loyihalash va infratuzilma tayyorgarligi ishlari bajariladi.

Rezavor mevalar — malina, maymunjon, golubika va qulupnay yetishtirish maydonlarini 1500 gektarga yetkazish bo‘yicha amaliy qadamlar qo‘yildi. Zero, bu mahsulotlar eksportbopligi va yuqori qiymati bilan alohida ahamiyatga ega.

O‘z o‘rnida qishloq xo‘jaligi sanoati eksportini 4 milliard dollarga yetkazish maqsadi doirasida birinchi chorakda tashqi bozorlar bilan shartnomalar tuzish, sertifikatlash jarayonlari tezlashtiriladi. 555 million dollarlik 16 ta loyihani amalga oshirish bo‘yicha investitsiya kelishuvlari bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etiladi.

Raqamli texnologiyalar izchilligi

Raqamlashtirish — boshqaruv madaniyati va fikrlash tarzi yangilanishidir. Sun’iy intellekt, dronlar, elektron platformalar va ma’lumotlar tahlili orqali yer va suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati kengaymoqda. Endi har bir qaror hissiyot emas, aniq raqam va tahlillarga tayanadi. Bu esa xatolarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, vaqtni tejashga yordam beradi. Shu ma’noda, raqamli qishloq xo‘jaligi bugungi kun voqeligidir. U dalani laboratoriyaga, fermerni esa zamonaviy menejerga aylantirmoqda.

Birinchi chorakda “Raqamli qishloq xo‘jaligi” yagona integratsiya platformasi ishga tushirilishi natijasida 100 dan ortiq xizmat va 30 dan ziyod axborot tizimi yagona nuqtada birlashtiriladi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosida ma’lumotlarni tahlil qilish, yer va suv resurslarini boshqarish, ekinlarni oqilona joylashtirish bo‘yicha amaliy ishlar boshlandi.

Dron xizmatlari yo‘lga qo‘yilib, 600 ming gektar maydonda agrotexnik tadbirlarni dronlar orqali amalga oshirishga zamin yaratiladi. Bu esa vaqt va resurs tejamkorligini ta’minlaydi.

Belgilangan ustuvor vazifalardan ko‘zlangan asosiy maqsad ishlab chiqarish sur’ati va hosildorlikni oshirish hamda imkoniyatlarni to‘liq ishga solishdir. Bu nafaqat yangi yerlarni o‘zlashtirish yoki hajmni ko‘paytirish, balki har bir qarich yerdan samarali foydalanish, zamonaviy yondashuv va aniq reja asosida ish yuritish demakdir.

Hozir hisob-kitob tizimini takomillashtirish, quyi bo‘g‘inlarda yetishtirilayotgan mahsulot hajmini to‘g‘ri va shaffof aks ettirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada Milliy statistika qo‘mitasi bilan hamkorlikda ma’lumotlar aniqligi va ishonchliligini ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlar bajarilmoqda. Choraklik vazifalarni vertikal boshqaruv tizimi asosida, mas’ul shaxslarni aniq biriktirgan holda amalga oshirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Hududlardagi buxgalteriya markazlarini qayta o‘qitish esa hisob yuritish madaniyatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Eng muhimi, agrar sohada yashirin iqtisodiyotni bartaraf etish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bu orqali ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi, resurslar harakati va daromadlar ochiq-oydin ko‘rinadi. Joriy yilda mamlakatimizda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish jarayonlari o‘tkazilishi esa soha uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. Bu nafaqat o‘sish sur’atini tabiiy ta’minlash, balki aniq va puxta hisob-kitob asosida strategik rejalar tuzishga mustahkam zamin yaratdi.

Bir so‘z bilan aytganda, joriy yil uchun belgilangan marralar xalq farovonligiga qaratilgan ulkan dasturdir. 6 foizli o‘sishni ta’minlash yilni qishloq xo‘jaligi sohasida tub burilish davriga aylantiradi. Binobarin, bugun yurtimiz dalalarida faqat ekin emas, balki yangi tafakkur, yangi yondashuv, yangi davr kayfiyati hukmron. Eng muhimi, bu islohotlar ortida inson manfaati turibdi. Har bir sharoit, har bir yangi imkoniyat bu — fermerning daromadi, aholining dasturxonidagi baraka, yoshlarning qishloqda qolib, zamonaviy sharoitda mehnat qilishi uchun yaratilgan poydevordir. Agrar sohadagi o‘zgarishlar qishloq qiyofasini, turmush tarzini va iqtisodiy muhitni tubdan yangilamoqda.

Agrar sektor

ENG ZAMONAVIY VA “Aqlli” TEXNOLOGIYALAR

Agrar sohani har tomonlama kompleks rivojlantirish barcha davlat uchun barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi hamda uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan. Zero, qishloq xo‘jaligi bevosita bandlik darajasi, ijtimoiy barqarorlik, hududlar rivoji, eksport salohiyati va aholining turmush sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtiradigan, ularni qayta ishlash va yetkazib berish jarayonini samarali yo‘lga qo‘ygan mamlakatlar bugungi global raqobat sharoitida qator ustunliklarga ega bo‘ladi.

O‘z navbatida, rivojlangan agrar sektor mahalliy oziq-ovqat bozorining barqarorligini ta’minlaydi hamda eksport daromadi oshishiga xizmat qiladi. Bu tarmoq iqtisodiyotning ko‘plab sohalari rivojiga katta turtki beradi. Logistika, qayta ishlash, savdo, mashinasozlik, fan va xizmatlar kabi yo‘nalishlar shular jumlasidan. Puxta shakllantirilgan agrar tizimga ega davlatlar iqtisodiyoti hozirgi global beqarorlik davrida yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etmoqda.

O‘zbekiston agrar sohani rivojlantirish uchun tabiiy va qulay iqlim sharoiti hamda yuqori salohiyatli kadrlar bazasiga ega. Turli ekinlar uchun mos hududlar asrlar davomida shakllangan dehqonchilik an’analari, qulay geografik joylashuv va eksportga talab o‘sib borayotgani barqaror rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi.

Hozir mamlakatimiz jahon tajribasida o‘zini oqlagan usullarga tayangan holda mazkur tarmoqni tizimli yondashuvga asosan izchil rivojlantirmoqda.

Bundan 9 yil avval O‘zbekistonning agrar sektorida ko‘plab jiddiy muammolar to‘planib qolgan edi. Sohada qat’iy boshqaruvning yo‘qligi, bozor mexanizmlari joriy etilmagani, ixtisoslashuvning sustligi, past rentabellik, eskirgan irrigatsiya infratuzilmasi va suv resurslaridan samarasiz foydalanish holatlari qator qiyinchiliklar tug‘dirar, bu esa sohaning tobora oqsashiga olib kelardi.

Investitsiya jalb etishdagi byurokratik to‘siqlar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdagi oqsoqliklar, fan bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi doimiy aloqa o‘rnatilmagani ham bor gap. Fermerlar mahsulotini sotish, qayta ishlash va tashqi bozorlarga chiqarishda jiddiy cheklovlarga duch kelar, mehnat unumdorligi darajasi ham shunga mos ravishda past edi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-yildan agrar sektorda ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirila boshladi. Qishloq xo‘jaligini tubdan transformatsiya qilishga alohida e’tibor qaratildi. Yer munosabatlari va ishlab chiqarish jarayoni izchil liberallashtirilmoqda. Fermerlarning mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatidagi roli kuchaytirilmoqda. Qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish jarayoni diversifikatsiya qilinib, yuqori daromadli va eksportga yo‘naltirilgan ekinlarga alohida urg‘u berilyapti.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning agrar sohadagi klaster tizimi paxtachilik, meva-sabzavotchilik, g‘allachilik, chorvachilik va qayta ishlash yo‘nalishlarida samarali joriy etildi.

Klaster tizimi daladan bozorgacha bo‘lgan yagona zanjirni shakllantirib, ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika va eksportning uzviy bog‘liqligini ta’minlash imkonini berdi.

Bunday yondashuv boshqaruv samaradorligini oshirib, xarajatlarni qisqartirdi. Muhimi, mahsulot uchun kafolatli bozorni ta’minladi va investitsiyalarni jalb etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayoniga katta turtki berdi.

Hozir yangi yerlarni o‘zlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayon ishlab chiqarish resurslari kengayishi, ilgari foydalanilmagan maydonlardan samarali foydalanish, hududlarda yangi ish o‘rinlari va iqtisodiy o‘sish nuqtalarini ochish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari hududlarga tashrifi davomida xo‘jaliklar va korxonalar faoliyati bilan shaxsan tanishyapti. Islohotlarning samarasi tahlil qilinib, muammolar aniqlanmoqda va puxta o‘ylangan qarorlar qabul qilinyapti.

Joriy yil 9-fevral kuni qishloq xo‘jaligida yangi yerlarni o‘zlashtirish va sohada ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha bo‘lib o‘tgan takliflar taqdimotida davlatimiz rahbari sohada qilinayotgan ishlar, agrar sektorni rivojlantirishga qaratilgan aniq takliflar, xulosa va loyihalar bilan tanishdi.

Qayd etish kerakki, Prezidentimizning topshirig‘iga ko‘ra, oxirgi besh yilda ekin maydonlaridagi tuproq tahlili o‘tkazilgan. Hozir ana shu besh yillik tadqiqot natijalari tayyor. Mamlakatimizda sug‘oriladigan ekin maydoni 3 million 700 ming gektarni tashkil etadi. Mazkur yer maydoni har bir kontur, massiv, tuman, viloyat bo‘yicha ko‘rib chiqilib, kaliy, fasfor, gumus qatlami kabi qator ozuqalar bilan ta’minlanganlik darajasi aniqlandi. Sababi shunga qarab dehqonchilik qilinadi, ekin turlari tanlanadi va o‘g‘it bilan oziqlantirish rejalashtiriladi.

Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari natijasida so‘nggi besh yilda 826,5 ming gektar yer qishloq xo‘jaligida foydalanuvga kiritildi. Shuning 409 ming gektari sug‘oriladigan yer hisobida, 418 ming gektari yer osti suvidan foydalanish hamda kam suv talab qiladigan ekinlarni joylashtirish orqali o‘zlashtirildi. 2030-yilgacha yana 938 ming gektar yaylovni o‘zlashtirish va holatini yaxshilash rejalari taqdimoti o‘tkazildi.

Taqdimotda biotexnologiya va molekulyar biologiya, gen injeneriyasi va gibrid urug‘chilik, “aqlli” qishloq xo‘jaligi, kosmik va dron texnologiyalari, yerlar degradatsiyasi hamda sog‘lom tuproq, organik qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi, veterinariya, raqamli qishloq xo‘jaligini akademiya faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilash taklif etildi.

Shuningdek, fermerlar hamda xodimlari farzandining test sinovlarida to‘plagan ballari qabul parametrlariga yetmasa, miqdori kamaytirilgan to‘lov-kontrakt asosida universitetga qabul qilinishi, yettita ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qish davomiyligini 4 yildan 3 yilga qisqartirish taklif etildi. Talabalarga traktorchi-mashinist guvohnomasini berish va agrodronlardan foydalanishni o‘rgatish yo‘lga qo‘yiladi.

— Davlatimiz rahbari Agrosanoatni rivojlantirish agentligi oldiga qator vazifalarni qo‘ygan edi, — deydi agentlik direktori Nurali Abdullayev. — Asosiy vazifalarimizdan biri respublikamizda bog‘dorchilikni rivojlantirish, tog‘oldi, qir-adirliklarda bog‘lar barpo etish va bog‘bonlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Taqdimotda o‘tgan yili agentlik bajargan ishlar sarhisob qilindi hamda joriy yilda rejalashtirilgan ishlar borasida axborot berildi.

Xususan, har yili mamlakatimizga 60 million dollarlik ko‘chat import qilinmoqda. Ularni Yevropa standartlari asosida yurtimizda tayyorlash uchun barcha imkoniyat mavjud. Bu borada agentlik tomonidan 200 dan ortiq meva turlarining virusdan xoli, yuqori hosilli onalik navlari kolleksiyasi yaratilgan. Ularni ko‘paytirish va barcha hududga yetkazib berish maqsadida Bektemir tumanida 50 gektar, Yuqori Chirchiq tumanida esa 75 gektarli “in-vitro” laboratoriyalari va onalik ko‘chatxonalaridan iborat majmualar tashkil etilmoqda. Prezidentimiz ushbu majmualarni yil yakunigacha ishga tushirib, yillik 27 million tup ko‘chat tayyorlash vazifasini qo‘ydi.

Bir so‘z bilan aytganda, fan va innovatsiyalar yutuqlarini, zamonaviy urug‘lar, suv tejovchi texnologiyalar, raqamli yechimlar, aniq dehqonchilik usullarini keng joriy etish natijadorlikni ta’minlash va eng muhimi, agrar sektorning jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Lutfulla SUVONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

2026-yil 17-fevral, 32-son

Kelajakning asosiy g‘oyasi bitta: energiya ishlab chiqarishning o‘zi yetarli emas, energiyani boshqarish davri kelmoqda. Bu gap oddiy tuyuladi, lekin uning ichida uchta katta yo‘nalish bor — ESS, energiyani tejash va zero-carbon yondashuvi.

Kreativ yondashuv

TEZ QAYTADIGAN VA O‘ZINI OQLAYDIGAN INVESTITSIYA

Zoir KENJAYEV,
fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Mamlakatimiz yetakchisi Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida ekologik muvozanatni ta’minlash, “yashil” energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanishni 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim 6 ta ustuvor yo‘nalishdan biri sifatida belgilab berdi.

O‘zbekiston bugun elektr energiyasi masalasini “faqat elektr yetkazib berish” doirasidan ancha kengroq ko‘ra boshladi: energetika bu sanoatning ishlashi, aholining turmushi sifati, investitsiya muhiti barqarorligi va nihoyat davlatning iqtisodiy mustaqilligi demakdir. Shu sabab “yashil” energiya endi faqat ekologiya emas, balki energiya mustaqilligi va iqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq masalaga aylanganini amaliy sa’y-harakatlar ham tasdiqlamoqda.

Shu o‘rinda “Yashil energiya o‘zini oqlayaptimi?” degan savolga javobni uch yo‘nalishda izlaymiz: kecha — muammo va zarurat; bugun — natija va real ko‘rsatkich;

ertaga — ESS (energiya saqlash tizimlari), energiya samaradorligi va “zero-carbon” yondashuvi asosidagi yangi bosqich.

Energetikadagi bugungi o‘zgarishlar birdan paydo bo‘lgani yo‘q. Ular real hayotdagi oddiy holatdan boshlandi: iqtisodiyot o‘sdi, aholi ko‘paydi, ishlab chiqarish ko‘lami kengaydi. Demak, energiyaga talab oshdi. Bunday vaziyatda tizimning eng katta vazifasi — elektr energiyasini ishonchli, uzluksiz va barqaror yetkazib berish. Ammo talab oshib borar ekan, faqat an’anaviy yo‘ldan yurish har doim ham yetarli bo‘lmaydi. Kechagi davrning asosiy sabog‘i shu bo‘ldiki, talab va ta’minot muvozanatini saqlash uchun energiya manbalarini diversifikatsiya qilish, yo‘qotishlarni kamaytirish, tejamkorlikni kuchaytirish va eng muhimi, tizimni zamonaviy boshqaruvga o‘tkazish zarur edi.

Shu nuqtada “yashil” energiyaning mohiyati O‘zbekiston sharoitida faqat ekologik foyda emas, balki resurs tejamkorlik, energiya xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlik masalasi ekani yaqqol ko‘rindi.

O‘zgarishlar sur’ati oshgan davr sifatida 2023-yil alohida ajralib turadi. Chunki “yashil” energetika siyosati tajriba va loyiha bosqichidan davlat miqyosida jadallashtirish bosqichiga o‘tdi. Prezidentimizning 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Bu burilishning kuchli jihati — yondashuvning faqat yirik stansiyadan “yirik + tarqatilgan (uy, korxona, ijtimoiy obyekt)” modeliga kengaygani bo‘ldi. Xonadonlar va obyektlarda kichik quvvatlarni yoyish, 100 kilovattgacha qurilmalar uchun preferensiyalar bozorni ommalashtirdi va qonuniy oqimga olib kirdi.

Natijada talabni rag‘batlantirish, loyihalarni ishga tushirish, bozorni tartibga solish va energiya tejamkorligini davlat siyosati darajasiga ko‘tarish asosida 2023-yil “g‘oya yili” emas, balki mexanizm yili bo‘ldi.

Rejadan ishlab chiqarishga

O‘tgan yili 5-dekabr kuni yangi energetika quvvatlari va infratuzilma obyektlarini ishga tushirish marosimida so‘nggi yillarda energetika tizimiga 35 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etilgani, 9000 megavattli yangi quvvatlar ishga tushirilgani ta’kidlandi. Shuningdek, elektr ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 60 milliard kilovatt-soatdan 2025-yilda 85 milliard kilovatt-soat atrofida ko‘tarilgani qayd etildi.

Qisqasi, tizimda “quvvat yetmay qolishi” xavfini kamaytiradigan yangi manbalar ko‘paydi, energiya ishlab chiqarish hajmi o‘sdi, infratuzilmaga investitsiya kiritish kuchaydi.

O‘tgan yil yakuniga doir sohaviy hisobotlarda 2025-yilda 42 ta yangi generatsiya loyihasi ishga tushirilgani (jami 4647 megavattli), elektr ishlab chiqarish hajmi 86,7 milliard kilovatt-soatga yetgani, shundan 16,8 milliard kilovatt-soati qayta tiklanuvchi manbalar hissasiga to‘g‘ri kelgani qayd etilgan. Quyosh va shamoldan elektr energiyasi olish hajmi 10,5 milliard kilovatt-soatga yetgan.

Bu nimani anglatadi? Yashil energiya faqat reja bo‘lib qolmayapti, aksincha, milliy statistikada ko‘rinadigan real ishlab chiqarishga aylanmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya hisobidan 3,2 milliard kub metr gaz tejalgani va 4,7 million tonna zararli tashlanmalar oldi olingani fikrimiz tasdig‘idir.

Bu yerda eng muhim xulosa shuki, yashil energiya ekologiya bilan birga iqtisodiy bosimni ham yumshatadi. Gaz resursi tejaladi. Demak, u boshqa energiya ehtiyojlariga yo‘naltirilishi mumkin.

Bugungi bosqichda stansiya va generatsiya ko‘paydi. Barchasi shu bilan tugadi deyish mumkin emas. Aslida, transformatsiya faqat generatsiya bilan yakunlanmaydi. Tarmoq, dispetcherlik, hisob, yo‘qotishlarni kamaytirish kabi yo‘nalishlar parallel mustahkamlanishi zarur.

Bu o‘rinda “tarqatilgan generatsiya” (uy, korxona, ijtimoiy obyektlar) yirik stansiyalarini to‘ldiradigan ikkinchi qanot ekanini alohida ta’kidlash kerak. Tarqatilgan generatsiya tarmoqdagi yuklamani yengillatishi, joyida iste’molni qoplashi, ayrim hududlarda kuchlanish o‘ynashi, energiya yo‘qotilishi muammolarini kamaytirishi mumkin. Biroq u ham tartib-qoida, texnik madaniyat, hisob va monitoringni talab qiladi.

Shuning uchun hisob va tasdiq masalasi keyingi bosqichda juda muhim: 2023-yilda yashil energiya sertifikati tizimi yo‘lga qo‘yilgani, 2025-yilda nizomga o‘zgartirishlar kiritilgani bozorning shaffoflikka o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Kelajakning asosiy g‘oyasi bitta: energiya ishlab chiqarishning o‘zi yetarli emas, energiyani boshqarish davri kelmoqda. Bu gap oddiy tuyuladi, lekin uning ichida uchta katta yo‘nalish bor — ESS, energiyani tejash va zero-carbon yondashuvi.

ESS — “notekis”ni tekislaydi

Energiya saqlash tizimlari — ESS (Energy Storage System) ko‘pchilikka “katta akkumulyator” bo‘lib ko‘rinadi. Aslida, vazifasi bundan kengroq: u elektr tizimidagi uchta eng dolzarb muammoni yumshatadi: uzilishlarda zaxira bo‘lishi, tig‘iz soatlardagi yuklamani pasaytirish va quyosh-shamol kabi o‘zgaruvchan manbalarni tarmoqqa barqaror ulash.

Buni oddiy qilib tushuntirish mumkin: quyosh elektr stansiyasi kunduzi ko‘proq energiya ishlab beradi, lekin kechqurun odamlar uyga qaytib, iste’mol ortadigan paytda talab kuchayadi. Shamolda ham shunday: u bir maromda esmaydi. ESS esa aynan shu “notekislik”ni tekislaydi: ortiqcha energiyani yig‘ib, talab oshgan vaqtda tarmoqqa yoki iste’molchiga qaytarib beradi.

ESS qayerda eng ko‘p samara beradi?

Birinchidan, yirik ESS tizimlari yuklamani kamaytiradi, tarmoq barqarorligini oshiradi va dispetcherlik boshqaruvini yengillashtiradi.

Ikkinchidan, uzilishlar ishlab chiqarishni to‘xtatib qo‘ymasligi, kuchlanish tebranishlari kamayishi, ayniqsa, tig‘iz vaqtlarda energiya xarajati qisqarishi mumkin.

Uchinchidan, uzoq uzilishlarda minimal hayotiy ehtiyojlar — yoritish, internet, muzlatkich, suv nasosi ishlashi kabi yuklamalarni ushlab turadi.

ESS hamma joyga bir xil qo‘yiladigan qurilma emas. Uning o‘zini oqlashi odatda uzilishlar nechog‘liq tez-tez bo‘lishi va keltiradigan iqtisodiy zarar, tig‘iz paytlarda yuklama va energiya narxi bosimi, tizimda quyosh/shamol ulushi qanchalik yuqori ekani kabi omillarga bog‘liq.

Shuning uchun ertangi bosqichda asosiy vazifa ko‘p o‘rnatish emas, balki ESSni to‘g‘ri joyda, to‘g‘ri quvvatda va to‘g‘ri boshqaruv bilan joriy etishdir. Bu yondashuv ESSni shunchaki texnika emas, balki yashil energiyaning barqaror ishlashini ta’minlaydigan tizimli yechimga aylantiradi.

Ertangi kunning ikkinchi tayanchi — energiya samaradorligi. Bu g‘oya juda oddiy: elektrni faqat ko‘paytirish bilan muammoni yengib bo‘lmaydi. Avval uni behuda sarflashni kamaytirish kerak. Shuning uchun ham energetikada ko‘p ishlatiladigan ibora bor: “eng arzon megavatt — tejalgan megavatt”. Ya’ni ishlab chiqarilmagan, tarmoqdan olinmagan, lekin tejalgan energiya eng arzon va eng tez natija beradigan quvvatdir.

So‘nggi yillarda energiya tejamkorligiga e’tibor kuchayayotgani bejiz emas. Chunki energiya samaradorligi bir vaqtning o‘zida tarmoqdagi yuklamani kamaytirish, korxona va xonadon xarajatini qisqartirish, yangi quvvatlarga bosimni yumshatish kabi masalalarga yechim bo‘ladi.

Shu ma’noda, 2025-2027-yillarda energiya sarfi yuqori bo‘lgan subyektlar kesimida tejamkorlik choralarini jadallashtirish rejalari e’lon qilingani ham “yashil iqtisodiyot” faqat stansiya va megavattlar emas, balki tejamkorlik madaniyati ekanini anglatadi.

Energiya samaradorligi ko‘pincha katta qurilish yoki katta xarajat talab qilmaydi. Masalan, ko‘p joyda energiya “qozonda emas”, devor va tomda yo‘qoladi. Issiqlik izolyatsiyasi, deraza-eshiklarning zichligi, tom qismi — bular to‘g‘rilansa, qishda isitish, yozda sovitish uchun ketadigan energiya sezilarli kamayadi.

Eski dvigatel, nasos, kompressor yoki yoritish tizimi ko‘pincha keragidan ortiq elektr “yeydi”. Bu yerda yechim oddiy: energiya tejamkor motorlar, to‘g‘ri tanlangan nasos-kompressor, LED yoritish, avtomatik boshqaruv kabi yangilanishlar “tez qaytadigan” investitsiya bo‘lishi mumkin.

Ba’zan texnikani almashtirmasa ham natija chiqadi: monitoring (hisob va tahlil), ish rejimini to‘g‘ri sozlash, ortiqcha ishlayotgan uskunani o‘chirib qo‘yish, yuklamani tig‘iz soatlardan boshqa vaqtlarga ko‘chirish — bular energiyani sezilarli tejaydi. Eng muhimi, bu yo‘nalish odatda eng arzon, lekin eng tez ta’sir qiladigan choradir.

Energiya samaradorligi mayda tejamkorlik emas, balki katta tizimning poydevori. Agar bir mamlakat energiyani oqilona ishlatishni o‘rgansa, u nafaqat elektr yetishmovchiligi xavfini kamaytiradi, balki sanoat uchun barqaror sharoit yaratadi, aholi xarajatini qisqartiradi va yashil energiya samaradorligini ham oshiradi. Shuning uchun ertangi kunning eng to‘g‘ri yo‘li — avval tejamkorlik, keyin quvvat.

Uchinchi tayanch: “Zero-carbon uy”. Bu ibora ba’zan odamlarga qimmat trenddek tuyuladi. Aslida, bu dabdaba emas, energiya tejamkorlik va mustaqillikni bosqichma-bosqich oshirish g‘oyasidir. Uni “issiqlik izolyatsiyasi + issiqlik nasosi + quyosh elektr tizimi + ESS + monitoring” kabi oddiy formulaga jamlash mumkin.

Muhim jihati shundaki, “zero-carbon” degani bir kunda hammasini sotib olish degani emas. Bu — uy xo‘jaligi uchun ham, iqtisod uchun ham eng to‘g‘ri yondashuv: avval ortiqcha energiya yo‘qotishni kamaytirish, keyin samarali isitish, so‘ng o‘z energiyasini ishlab chiqarish va boshqarish — uchta qadamdan iborat.

Eng birinchi va eng arzon qadam — issiqlik yo‘qotiladigan joylarni yopish. Tom, devor, pol izolyatsiyasi, deraza-eshiklarning zichligi, yoriqlarni bartaraf etish — bular qishda isitishga, yozda sovitishga ketadigan energiyani sezilarli kamaytiradi.

Keyingi qadam — isitish tizimini energiya tejamkor qilish. Bu yerda issiqlik nasoslari alohida o‘rin tutadi: to‘g‘ri tanlangan va to‘g‘ri o‘rnatilgan issiqlik nasosi bir xil issiqlikni kamroq energiya bilan ta’minlashi mumkin. Qishda yuklama oshadigan sharoitda bu nafaqat xonadon xarajati, balki tarmoqdagi tig‘iz payt bosimini ham yumshatadi. Tizimni optimallashtirish (sozlash, avtomatik rejim) ham shu bosqichga kiradi.

Uchinchi bosqichda uy faqat iste’molchi emas, qisman ishlab chiqaruvchiga aylanadi. Quyosh elektr tizimi kunduzi energiya beradi, ESS esa kechqurungi ehtiyojni qo‘shimcha ta’minlaydi va uzilishlarda zaxira bo‘lib turadi. Monitoring esa energiya sarfini ongli boshqarishda juda muhim.

Shunday qilib, “zero-carbon uy” tejamkorlikdan boshlanadi, samarali isitishga o‘tadi, so‘ng o‘z energiyasini ishlab chiqarish va saqlash bilan yakunlanadi. Eng muhimi, bu yondashuv qimmat texnologiyadan ko‘ra ko‘proq to‘g‘ri ketma-ketlik va texnik madaniyat masalasidir.

Kelajakni chuqur tahlil qilishda bitta nozik nuqta bor — texnologiya tez kirib kelsayu, sifat va xavfsizlik ortda qolsa, yangilikning ohoriga ham putur yetishi mumkin. Yashil energiya tizimlari “o‘rnatib qo‘yiladigan” oddiy buyum emas. Buning uchun loyiha, to‘g‘ri o‘rnatish va monitoring talab qilinadi. Shu sabab “tizim” deganda faqat stansiya emas, butun ekotizim tushuniladi.

Bu yerda tarmoq va tizim mustahkamligi uchun yo‘qotishlarni kamaytirish, dispetcherlik, hisob va nazorat parallel kuchayishi shart.

Yangi energetik tafakkur

Transformatsiya texnologiya bilan boshlanadi, ammo kadrlar bilan barqarorlashadi. Oliy va professional ta’limda qayta tiklanuvchi energiya bo‘yicha kadrlar tayyorlashga e’tibor kuchaygani, ta’lim — ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash bo‘yicha huquqiy asoslar yangilangani bu yo‘nalishda sifatli o‘sishga xizmat qiladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, eng ko‘p natija beradigan omillar — to‘g‘ri loyihalash, montaj madaniyati, himoya va yerga ulash, servis, monitoring, real iste’mol profiliga tayangan hisob-kitobdir. Ertangi kun faqat yashil energiya uskunalari emas, balki shu sohadagi malakali mutaxassislar bilandir.

Shu o‘rinda “yashil energiya” bo‘yicha startaplar va amaliy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda moliyalashtirishga urg‘u berilayotgani bejiz emas. Energetikaga investitsiya oqimi jalb etilayotgani, yirik loyihalar yo‘lga qo‘yilayotgani, ESS tizimlarining paydo bo‘lishi va tarmoq infratuzilmasi bilan bog‘liq ishlar O‘zbekistonning mintaqadagi rolini kuchaytirishi, ichki barqarorlikni mustahkamlashi va mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin.

Bu jarayon sanoatning barqaror ishlashi uchun energiya cheklovini kamaytiradi. Energiya barqarorligi va tizimning prognoz qilinishi tashqi investitsiya oqimini oshiradi. Yashil energetika, ESS va energiya samaradorligi aynan shu prognoz qilinadigan barqarorlikni kuchaytiradi.

Bugun O‘zbekiston yashil energetikada to‘g‘ri yo‘lni tanlaganini 2023-yildan boshlangan sa’y-harakatlar, 2025-yilgi davlat dasturi, yirik investitsiyalar, ishga tushirilgan quvvatlar va qayta tiklanuvchi energiyaning real statistikaga kirib kelgani tasdiqlaydi.

Lekin ertangi bosqichning muvaffaqiyati uch omilga bog‘liq bo‘lib qoladi: sifat va xavfsizlik (standart, himoya, servis), kadrlar (ta’lim — amaliyot integratsiyasi), boshqaruv (monitoring, energiya samaradorligi, ESS). Shu shartlar uyg‘un ishlasa, “yashil energiya o‘zini oqlayaptimi?” degan savolga oddiy va professional javob bunday bo‘ladi: ha, oqlayapti. Chunki u alohida qurilma emas. Bu yangi energetik tafakkur: tejamkorlik, texnik madaniyat, shaffof hisob, aqlli boshqaruv va malakaga tayangan yondashuvdir.

O‘zbekiston “yashil energiya” orqali faqat elektr ishlab chiqarishni emas, balki kelajak avlodlar uchun barqaror iqtisodiyot, energiya mustaqilligi va zamonaviy taraqqiyot poydevorini yaratmoqda.

“Yashil makon”

EKOLOGIK TAHDIDLARNING OLDINI OLISH ustuvor vazifa bo‘lib qolaveradi

Insoniyatning atrof-muhitga ta’siri sababli ekologik tahdid dunyo bo‘ylab kuchayib bormoqda. Bu tabiiy muhitning buzilishi, iqlim o‘zgarishi, inson hayoti va salomatligi, ekotizim barqarorligiga xavf soluvchi omillar, bioxilma-xillikning yo‘qolib borishi ko‘rinishida namoyon bo‘layotir.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Shu bois, yurtimiz tabiatida yuz berayotgan salbiy holatlarning kelib chiqish sabablarini aniqlab, ularni imkon qadar bartaraf etish va yumshatish, bu borada aholi xabardorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 3-yanvardagi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Amudaryo tumani ekologiya va iqlim o‘zgarishi bo‘limi atmosferadagi salbiy o‘zgarishlarning oldini olish uchun muayyan ishlarni bajarmoqda.

— Bo‘limimiz tomonidan o‘tgan yili bir qator ishlar amalga oshirildi, — deydi Amudaryo tumani ekologiya va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i Rashid Begaliyev. — Jumladan, Choyko‘l ovuli hududidagi 0,9 gektar maydonda bog‘ barpo etildi. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi va Qipchoq davlat o‘rmon xo‘jaligi tomonidan hududning tabiiy tuproq-iqlim sharoitiga mos ko‘chatlar tanlab olinib, o‘tgan yili “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 825 ming tup mevali va manzarali daraxt ko‘chati ekildi. Ularning parvarishini nazorat qilish uchun mas’ul tashkilotlar xodimlari biriktirilgan. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rejimiga rioya etilishi hamda o‘simlik va hayvonot dunyosini asrab-avaylash bo‘yicha davlat ekologik nazorati doirasida tezkor tadbirlar o‘tkazildi. Natijada 123 ta qonunbuzarlik holati aniqlanib, fuqaro va mansabdor shaxslarga salkam 250 million so‘mlik jarimalar qo‘llangan. Shuningdek, bo‘limimiz “Yerelektron” avtomatlashtirilgan platformasi orqali jami 10 ta yer uchastkasini o‘rganib, tegishli xulosa berdi. “E‘TIROF AT” elektron platformasi orqali o‘zboshimchalik bilan qurilgan turar joy imoratlari va mazkur binolar hududidagi dov-daraxtlarga ham qonun doirasida zarur xulosalar taqdim etilmoqda. Tashkilotga kelib tushgan murojaatlar atroflicha o‘rganilib, ekologik muammolarga o‘z vaqtida, samarali yechim topishga erishilyapti. Bu aholining atrof-muhit muhofazasiga munosabati ijobiy tomonga o‘zgarib, ekologik madaniyati oshishiga zamin yaratayotir.

Bugun Amudaryo tumanida ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan barcha sa’y-harakatlar nafaqat davlat va jamoat tashkilotlari, balki siyosiy partiyalar va aholi bilan hamkorlikda olib borilayotgani ham ijobiy natija bermoqda. Ayniqsa, sog‘liqni saqlash, ta’lim-tarbiya tizimi vakillari, Ekologiya partiyasining Amudaryo tumani kengashi hamkorligida 2025-yilning bahor va kuz faslida partiyaning ta’lim hamda sog‘liqni saqlash sohalarida faoliyat yurituvchi a’zolari ishtirokida 50 dan ziyod aksiya tashkil etilib, minglab mevali va manzarali daraxt ko‘chati o‘tqazilgan.

Ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan sa’y-harakatlarda tuman aholisi, ayniqsa, yoshlar faol ishtirok etmoqda. Tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhit tozaligiga e’tiborli bo‘lish, xonadonlarni yoritish va isitishda energiya tejamkor uskunalardan foydalanish, keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish tadbirlarini o‘tkazish bugun har bir amudaryolikning dolzarb vazifasiga aylangan. Cho‘llanish va suvsizlikka qarshi ko‘rilayotgan chora-tadbirlar tumanda faoliyat yurituvchi qishloq xo‘jaligi korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklarining tomchilatib sug‘orish texnologiyalaridan samarali foydalanishiga imkon bermoqda.

Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko‘ra, 1 tonna bug‘doy yetishtirish uchun 1,5 tonna, 1 tonna sholi uchun 4-5 tonna, 1 tonna paxta hosili olish uchun esa 10 ming tonna suv sarflanar ekan. Gidrosferaning 2,5 foizi chuchuk suvdan iborat ekanini inobatga olsak, global dunyoda, jumladan, mamlakatimizda ham ekologiya bilan bog‘liq muammolarni yechish, suvsizlikka qarshi qat’iy choralar ko‘rish hamda bu borada qat’iyat va tejamkorlik bilan ishlash nafaqat davlatning, balki har bir fuqaroning zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi.

Shunday ekan, yashil energiya manbalaridan foydalanishni an’anaga aylantirish, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini faoliyatimizga keng joriy etish, bog‘-rog‘lar, yashil maskanlarni ko‘paytirish, yer osti suvlaridan o‘ta ehtiyotkorlik bilan foydalanish orqali ekologik tahdidlarning oldini olish ustuvor vazifa bo‘lib qolaveradi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Taassurot

Insoniyat tamadduni beshiklaridan bo‘lgan ikki daryo oralig‘i — Movarounnahr hamda Nil vodiysi o‘rtasidagi aloqalar tamal toshini qo‘yish va mustahkamlashda nafaqat savdo karvonlari, balki ilm-fan, adabiyot ham muhim o‘rin tutgan. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi tashabbusi bilan joriy yil 11-14-fevral kunlari Misr Arab Respublikasiga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiya ham ushbu azaliy do‘stlikni yuqori bosqichga olib chiqish yo‘lida navbatdagi qadam bo‘ldi.

NIL VA AMUDARYO TUTASHGANDA...

Olimjon DAVLATOV,
Alisher Navoiy nomidagi Xalqaro jamoat fondi ijrochi direktori

Bugungi tarixiy aloqalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi yuritayotgan oqilona siyosat tufayli sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ikki davlat rahbarlarining o‘zaro ishonchga asoslangan muloqoti iqtisodiy, siyosiy va madaniy-gumanitar sohalarda keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Safar davomida Misrda O‘zbekistonga qiziqish nihoyatda yuqori ekaniga guvoh bo‘ldik. Ikki davlatning tarixiy taqdiri, diniy qadriyatlari va madaniy ildizlari o‘zaro juda yaqin. Bu mustahkam poydevor ustida kelajakning ulug‘vor binolarini qurish mumkin.

Buyuk mutafakkir, turkiy dunyoning benazir siymosi Alisher Navoiy asarlarida Misr timsoli ko‘p uchraydi. Shoir uchun Misr o‘lkasi shunchaki jug‘rofiy makon emas, balki adolat, go‘zallik va ma’naviy yuksalish ramzidir. Shu o‘rinda Hazrat Navoiyning mana bu baytini eslash joiz:

Misri izzat istabon zindoni
g‘amdin qochmakim,
Mohi Kan’on johig‘a bois
mazallat chohidur.

Bu yerda Navoiy Yusuf alayhissalom hayotidagi eng muhim lahzalarga ishora etish orqali butun boshli qissa hikmatini ikki satrga singdirmoqning uddasidan chiqqan.

“Misri izzat” izzat va sharaf mamlakati bo‘lmish Misrdir. Yusuf alayhissalom Misrda azizlik (vazirlik) qilgan edi. “Zindoni g‘am” — g‘am zindoni. “Mohi Kan’on” — Kan’on oyi, ya’ni Yusuf alayhissalom demak. “Mazallat chohi” esa xorlik chohi (qudug‘i) degan ma’noni anglatadi.

Donishmand shoir aytmoqchi bo‘lgan muxtasar ma’no budir: agar sen Misr kabi ulug‘ makon-manzilda izzat tojini kiymoq istasang, g‘am zindonidan, mashaqqatu uqubatlardan minba’d qochma! Zero, Kan’on oyi bo‘lmish Yusufning yuksak martabaga erishmog‘iga aynan o‘sha xorlik va azob qudug‘i (chohi) sabab bo‘lgan edi.

Tasavvufiy ma’noga ega bu bayt insonni sabr-toqatga, ezgu maqsad-maslak yo‘lidagi qiyinchiliklardan aslo qo‘rqmaslikka undaydi. Misr zaminiga sayohat asnosida bu o‘lkani ana shunday yuksalish va kamolot timsoli sifatida kashf etdik, Hazrat Navoiyning baytlari ham barhayot ekaniga yana bir karra inondik.

Ekspeditsiyaning eng muhim voqealaridan biri Qohira universitetiga tashrif bo‘ldi. Muhtasham dorilfunundagi uchrashuv arab va o‘zbek olimlarining diydorlashuvi, chinakam ilm bayramiga aylanib ketdi. Muhokamalar davomida cho‘ng bir haqiqat bot-bot ta’kidlandi: bizning tariximiz umumiy, binobarin, kelajagimiz ham mushtarak bo‘lmog‘i lozim.

Arab olimlari Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy kabi daholarning islom tamadduniga, dunyo ilm-faniga qo‘shgan hissasini yuksak qadrlaydi. Qohiradagi uchrashuvlarda Alisher Navoiy merosini teran o‘rganish orqali ikki xalq o‘rtasidagi adabiy aloqalarni yanada kuchaytirish zarurligi ham qayd etildi. Bu borada olimlar oldidagi vazifalar muhokama qilindi.

Safar asnosida Qohira universiteti va Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi o‘rtasida memorandum imzolashga kelishilganini muhim voqea deyish mumkin. Zero, ushbu hujjat talaba va tadqiqotchilarning ikki davlatda ta’lim olishini yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Qolaversa, arab va o‘zbek adabiyotining eng sara namunalarini ikki tilga tarjima qilish va nashr etishda ufqlar ochadi.

Qohira universiteti kutubxona fondida 15 ming nusxadan ziyod turkiy tildagi qo‘lyozmalar saqlanmoqda. Ushbu nodir qo‘lyozmalarni tizimli o‘rganish, ularning katalogini yaratish va ilmiy muomalaga kiritish borasida ham hamkorlik qilishga kelishildi. O‘zbekistonlik olimlar uchun Qohira ma’naviy xazinasi darvozasining ochilishi turkiyshunoslik va navoiyshunoslik fanida ulkan yangiliklarga zamin hozirlaydi.

Misrda Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va madaniyati xonasini, O‘zbekistonda esa Misr madaniyati xonasini ochish g‘oyasi ham har ikki tomonga ma’qul keldi.

Zamonaviy texnologiyalar asrida qo‘lyozmalarni asl holida saqlash bilan birga raqamli formatga o‘tkazish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Bu jihatdan madaniy meros namunalarini tiklash hamda raqamlashtirishga ixtisoslashgan “Ilm” muassasasi rahbari Abdul’otiy Muhyi Ahmad ash-Sharqoviy bilan bo‘lgan muloqot samarali kechdi. Kelishuvga ko‘ra, Misrdagi Alisher Navoiy va boshqa Markaziy Osiyo mutafakkirlari qalamiga mansub qo‘lyozmalarni yuqori sifatda raqamlashtirish va ularning targ‘ibotini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qo‘shma loyihalar amalga oshiriladi. Bu nafaqat olimlar, balki keng jamoatchilikka ham nodir asarlar bilan tanishish imkonini beradi.

Misr va O‘zbekiston jug‘rofiy jihatdan olisda joylashgan bo‘lsa-da, ikki o‘lkani bog‘lovchi rishtalar mustahkamdir. Jumladan, bu ko‘hna zaminda o‘zbek xalqining iftixori bo‘lgan ajdodlarimizning o‘chmas izlari bor. Ana shunday tarixiy siymolardan biri — Qohiradagi eng qadimgi va ulug‘vor jomelardan bo‘lgan Ahmad bin Tulun masjidini barpo ettirgan vatandoshimizdir. Muarrixlarning qayd etishicha, Ahmad bin Tulun asli buxorolik bo‘lib, uning buyurtmasiga asosan muazzam masjid barpo etilgan. Qurilish va muhandislik ishlarida yana bir vatandoshimiz, buyuk alloma Ahmad Farg‘oniyning chizmalari, hisob-kitoblaridan foydalanilgan. Bu obidani ziyorat qilar ekanmiz, qalbimizda g‘urur, iftixor tuyg‘ulari jo‘sh urdi.

IX asrda Farg‘oniy tomonidan mashhur nilometr — miqyosi nil qurilmasi o‘rnatilgani ma’lum. U to‘rt yonli quduq ko‘rinishida bo‘lib, daryo bilan uchta yer osti suv yo‘li orqali tutashgan. Mutaxassislar hozirga qadar suv sathini o‘lchash bo‘yicha nilometr darajasida pishiq-puxta uskuna yasalmaganini aytadi. Ajdodlarimiz aql-zakovatining Nil sohillaridagi toshlardagi izi bo‘lmish ushbu ixtiro ikki davlat ilmiy aloqalarining yorqin timsoli, o‘zaro do‘stligining ramzi hamdir.

Hozir O‘zbekiston va Misr yetakchilari do‘stona siyosat yuritayotir. Do‘stlik aloqalarini yanada mustahkamlash, mehr-muhabbat, ma’rifat nurlari bilan to‘ldirish esa biz — olimlar, ijodkorlar va ziyolilarning burchi. Ilmiy-amaliy safarlar, olimlar, ijodkorlar o‘rtasidagi almashuvlar aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilmog‘i shubhasiz. Zotan, ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni nafaqat o‘rganmoq, balki uni kelajak avlodlarga munosib tarzda yetkazmoq ham darkor.

Yo‘lchiroq

Farg‘onalik Mumtoza Ro‘zimatovaning orzusi bir olam: yaxshi kasb-hunar egallab, oilasi, el-yurtga xizmat qilish. Yorug‘ maqsadlar ro‘yobi uchun yurtimizda sharoit va imkoniyatlar yetarli. Shu bois, maktabni tamomlagandan so‘ng tegishli hujjatlarini yashash manziliga yaqin bo‘lgan Farg‘ona shahridagi 4-texnikumga topshirdi. Qiz bu qarorga bejiz kelmadi, albatta.

IMKONIYATLAR KASB EGALLASHGA UNDAMOQDA

Mazkur texnikumdagi ta’lim jarayoni Buyuk Britaniyaning nufuzli Pearson kompaniyasi bilan hamkorlikda olib boriladi. Dunyoga tanilgan bu kompaniya keng qamrovli, mehnat bozorida o‘z mavqeiga ega. O‘quvchilarga qo‘shma dastur asosida sifatli va zamonaviy ta’lim olish bilan birga xorijda ishlash imkonini beradi. Bu jarayon yoshlarning o‘qishga ishtiyoqini yanada oshirmoqda. Xalqaro ta’lim dasturiga muvofiq, texnikumga o‘qish va o‘qitish uchun ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy jihozlar olib kelindi, elektron va raqamlashgan dasturlar ishga tushirildi. Dars jarayoni ovozli, tasvirli, o‘yinli vositalar orqali o‘ziga xos va qiziqarli o‘tila boshladi.

— Kompyuter grafikasi va dizayn operatori yo‘nalishida tahsil olyapman, — deydi Mumtoza. — Bu yerda muayyan kasbni egallash bilan bir vaqtda xorijdagi nufuzli oliygohlarda ta’lim olish yoki kompaniyalarda ishlash imkoniyati mavjud. Darslar to‘liq ingliz tilida o‘tiladi. Bu esa chet tilini o‘zlashtirish orqali mukammal ta’lim olish hamda ishlash uchun zamin yaratmoqda. Bizga beriladigan diplom 70 davlatda tan olinadi. Texnikumni bitirgach, Angliyada ishlash bilan birga nufuzli oliy ta’lim muassasalarida o‘qib, mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shmoqchiman.

Hamkorlik dasturi doirasida yoshlar metalga ishlov berish, payvandlash, elektr montyorlik, kompyuter dizayni yo‘nalishlarida tahsil olib, zamonaviy kasblarni egallayapti. O‘quv jarayonida nazariy bilimlar bilan birga ishlab chiqarishga doir amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Hamkorlik 2026/2027-o‘quv yilida ham davom ettirilib, yana 150 yoshni qamrab olish ko‘zda tutilgan.

— Bu yerga imtihon asosida qabul qilinganmiz, — deydi texnikum o‘quvchisi Shohjahon Yahyoyev. — O‘qishga kirayotganimda til bilish darajam juda past edi, hozir ancha yuqoriladi. Nafaqat ustozlar, balki chet tilida erkin so‘zlashadigan tengqurlarim bilan muloqot ham bunda katta yordam beryapti. Bu intilishim xorijda bo‘lgan davrimizda ingliz tilida bemalol gaplashish, fikr-mulohazalarimni bildirish jarayonida qo‘l kelishiga ishonaman.

Yaqin vaqtgacha yoshlar kasb-hunar maktablari, kollejlarga istab-istamay, davomat uchungina borardi. Bunga ta’lim tizimi va o‘quv jihozlarining ma’nan eskirgani, o‘quv muassasasini bitirgach, ishga joylashishda yuzaga keladigan ovoragarchiliklar asosiy sabab edi. Endi bu boradagi qarashlar mutlaqo o‘zgargan, imkoniyat kengaygan. Kasbiy ta’lim kollejlari texnikumlarga aylantirildi, ta’lim dasturlari yangilandi va erkinlashtirildi, pedagoglar malakasi oshirildi, jihozlar, texnik vositalar zamon talablari darajasiga olib chiqildi. Asosiysi, texnikumni bitirganlar doimiy ish bilan ta’minlanyapti, hatto, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda chet elda o‘zi tanlagan kasb bo‘yicha ishlashi uchun imkoniyat eshiklari ochildi.

Marg‘ilon turizm va madaniy meros texnikumi Germaniyaning “Saksoniya iqtisodida ta’lim markazi” bilan hamkorlikda mehmonxona xo‘jaligini tashkil qilish va boshqarish yo‘nalishlarida kasb-hunarga o‘rgatilayotir.

— Asosiy maqsadimiz Germaniya tajribasini joriy etgan holda hududlar va ishlab chiqarish tarmoqlari uchun zarur kadrlarga ehtiyojni o‘rganish va shu asosda yoshlarga kasb-hunar o‘rgatish, — deydi Marg‘ilon turizm va madaniy meros texnikumi direktori Ravshan Sarimsoqov. — Yoshlarda til o‘rganish orqali muayyan kasb-hunarni egallashga ishtiyoq juda yuqori. Buning uchun barcha sharoit va imkoniyat mavjud. O‘quv jarayoni germaniyalik ish beruvchilar talablari asosida o‘tilyapti. Bu ish beruvchilar oldindan ko‘rsatgan ish joylariga borib ishlash, xorijdagi faoliyat davomida Germaniya tajribasi va standartlarni o‘rganib, mahalliy sharoitda ommalashtirish, mehnat bozorida o‘rta bo‘g‘in mutaxassislariga talabni qondirish imkonini beradi. Yangi o‘quv yilida bu borada kasb-hunar o‘rganish istagidagi yoshlar safini ikki hissa oshirishni maqsad qilganmiz. Mashg‘ulotlar doirasida nemis tilidan tashqari, ingliz, rus tillarida ham ma’lumot berib boriladi.

Marg‘ilon arxitektura va kommunal xo‘jaligi texnikumida Germaniyaning Askania Building kompaniyasi bilan hamkorlikda ombor logistikasi, bino-inshootlar quruvchisi, qurilish montyori yo‘nalishlari bo‘yicha 250 yigit-qizga kasb-hunar o‘rgatilmoqda. E’tiborlisi, xorijlik hamkorlar bilan ishlash ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Qo‘shma dastur orqali o‘quvchilar nemis tilini mukammal o‘rganib, xalqaro standartlarga mos mutaxassis bo‘lib yetishadi. Texnikumni muvaffaqiyatli bitirganlar Germaniyadagi ish beruvchilar oldindan tavsiya etgan korxonalarda ishlash imkoniyatiga ega. Kelgusida xalqaro hamkorlik dasturi doirasida yana besh kasb-hunar bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlanadi.

Sog‘liqni saqlash sohasi bo‘yicha kasbiy ta’limga ham xalqaro tajriba joriy etildi. Hozir Farg‘ona va Marg‘ilon shahridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlarida Shveysariyaning Globogate Concept AG kompaniyasi O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasida tibbiyot sohasida ta’lim va karyera imkoniyatlarini bog‘lovchi yirik xalqaro dasturni amalga oshirishni maqsad qilgan. Loyiha Germaniyada malaka oshirish hamda ishlash imkonini beradi. Talabgorlar uchun o‘quvlar bepul tashkil qilingan. Barcha xarajatni kompaniya qoplaydi. Har bir guruhga 20-25 nafargacha talabgor qabul qilinadi. O‘quv jarayoni 8-10 oy davom etadi. Til o‘rganib, xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritganlar Germaniyaga ishga yuboriladi.

— Prezidentimizning 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sohada mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi, — deydi Farg‘ona viloyati kasbiy ta’lim boshqarmasi boshlig‘i To‘ychiboy Boymatov. — Mazkur hujjatlar kasbiy ta’limni zamon talablari, xalqaro standartlar va mehnat bozori ehtiyojlariga uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Ayniqsa, xorijiy hamkorlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash, yoshlarni talab yuqori bo‘lgan kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitish, shuningdek, chet ellik ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib kasbiy yo‘nalishlarni shakllantirish borasidagi sa’y-harakatlar e’tiborga molik. Joriy o‘quv yilida viloyatimizdagi 63 texnikum Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi va ularning eng ilg‘or kasbiy ta’lim dasturlarini amaliyotga joriy etdi. Bugun qo‘shma ta’lim dasturi asosida bilim olayotgan yoshlar nafaqat mahalliy, balki tashqi mehnat bozori uchun ham raqobatbardosh, malakali mutaxassislar bo‘lib yetishmoqda. Kelgusi o‘quv yilida qo‘shma ta’lim dasturi asosida ta’lim olayotgan yoshlar safini ikki hissa oshirish ko‘zda tutilgan. Bunda ustoz va murabbiylarning nufuzli xorijiy kompaniya va kasb-hunar tashkilotlarida malakasi hamda mahoratini oshirish bilan bog‘liq istiqbolli dasturlar amalga oshiriladi.

Kasbiy ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lidagi islohotlar tizimga yangi nafas olib kirdi. Endi nufuzli xorij kompaniyalari mamlakatimiz yoshlarining bilimi va ishtiyoqi, intilishi hamda mehnatkashlik xislatlarini inobatga olib, yangi hunar va ish o‘rinlariga taklif qilmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Sherzod QORABOYEV olgan suratlar.

YAXSHILIKNING ODDIY SURATI

Azaldan beg‘araz donorlik inson hayotini saqlab qolishga qaratilgan eng olijanob va insoniy amallardan. Ayniqsa, murakkab transplantatsiya amaliyoti o‘tkaziladigan, onkologik va gematologik kasalliklarga chalingan, shuningdek, baxtsiz hodisalar oqibatida og‘ir tan jarohati olgan bemorlar uchun qon eng zarur vositaga aylanadigan holatlar ko‘p uchraydi.

Shu bois, keyingi yillarda yurtimizda beg‘araz donorlik harakatini rivojlantirish, qon xizmati muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozir yurtimizda markaziy qon quyish markazi, Toshkent shahri “Qon preparatlari” ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi, 13 ta hududiy va 2 ta respublika tasarrufidagi qon quyish stansiyasi hamda 13 ta qon quyish bo‘limi faoliyat yuritib keladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyasiga ko‘ra, har 1000 kishiga 30 nafar donor to‘g‘ri kelishi lozim bo‘lsa, yurtimizda bu ko‘rsatkich hozircha 10 nafarni tashkil etmoqda. Mamlakatda 2023-yilda 130,6 tonna, 2024-yilda 148 tonna va 2025-yilda 153 tonna sifatli qon tayyorlandi. Ko‘rsatkichni yanada oshirish maqsadida hududlarda maxsus jihozlangan 13 ta “Isuzu” ko‘chma donorlik avtobusi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Surxondaryo viloyati qon quyish stansiyasida bugun donorlar uchun barcha zarur shart-sharoit yaratilgan. Muassasa zamonaviy tibbiy uskunalar bilan to‘liq jihozlangan. Avval faqat poytaxtda amalga oshirilgan qonni qayta ishlash, saqlash va tahlil qilishga oid jarayonlar endi viloyatning o‘zida bajarilmoqda. Bu esa hudud aholisini sifatli qon preparatlari bilan tez va samarali ta’minlash, shuningdek, donorlik xizmatlarini yanada qulay va xavfsiz tashkil etish imkonini bermoqda.

— Hozir stansiyada donorlik harakatida yetakchi o‘rinni egallayotganlar asosan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari xodimlari hamda jamoatchilik asosida faoliyat yuritayotgan ko‘ngilli fuqarolardir, — deydi viloyat qon quyish stansiyasi bosh shifokori Mirzohid O‘roqov. — Bugun 18-60 yoshdagi, vazni 50 kilogrammdan yuqori har bir sog‘lom fuqaro donor bo‘lishi mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, erkaklar bir yilda 4 marotabagacha, ayollar esa 3 marotabagacha donorlik qilishi mumkin.

Donor boshqa inson hayotini saqlab qolish maqsadida o‘z qonini beg‘araz taqdim etayotgan fidoyi fuqarodir. Donor bo‘lish uchun alohida kasb yoki maqom talab etilmaydi. Sog‘lom bo‘lgan har bir inson bunday ezgu ishda ishtirok etishi mumkin. Bu jamiyatda beg‘araz donorlik madaniyatini rivojlantirish, inson hayotini asrash va aholi o‘rtasida mehr-oqibat ruhini mustahkamlashga xizmat qiladi.

— Surxondaryo viloyati qon quyish stansiyasida donor birinchi marta qon topshirishdan avval tibbiy ko‘rikdan o‘tadi. Pasport ma’lumotlari ro‘yxatga olinadi. Qon bosimi, tana harorati, gemoglobin miqdori tekshiriladi hamda umumiy salomatlik holati baholanadi, — deydi stansiya shifokori Salohiddin Qalandarov. — Shundan so‘ng donor sog‘lom deb topilsa, qon topshirish jarayoniga ruxsat beriladi. Qon steril sharoitda, maxsus jihozlar yordamida olinadi va bu jarayon o‘rtacha 10-15 daqiqa davom etadi. Qon topshirgandan keyin donor dam oladi, shirin ichimlik yoki yengil taom bilan ta’minlanadi hamda shifokorlar tavsiyalar beradi. Buning barchasi donorning sog‘lig‘ini asrash va jarayonni xavfsiz o‘tkazishga xizmat qiladi.

Surxondaryo viloyati qon quyish stansiyasida ko‘chma donorlik avtobuslari tashkil etilgan. Uning asosiy afzalligi aholiga maksimal qulaylik yaratish va donorlik xizmatini joyiga borib ko‘rsatishdir. Shuningdek, yurtimizda donorlar sonini oshirish maqsadida ko‘chma donorlik komplekslari faol yo‘lga qo‘yilmoqda. Maxsus jihozlangan “Isuzu” avtobuslari orqali qon topshirish jarayoni ish joylari, ta’lim muassasalari, mahallalar va harbiy qismlar hududida tashkil etilmoqda. Bu esa donorlar sonining sezilarli o‘sishiga xizmat qilayotir.

Mamlakat bo‘ylab “Men — donorman!”, “Bor mehrim senga, bolajon!” aksiyalari doirasida minglab fuqaro ixtiyoriy qon topshirib, odamlar hayotini saqlab qolishga hissa qo‘shmoqda. Bunday aksiyalar orqali jamiyatda donorlik madaniyati yanada mustahkamlanib, yoshlar o‘rtasida insonparvarlik va fidokorlik ruhi keng targ‘ib qilinmoqda. Ko‘chma avtobuslar zamonaviy uskunalar bilan jihozlangani tufayli qon olish jarayoni to‘liq xavfsiz, steril va xalqaro talablarga mos holda o‘tkazilayotir.

Yurtimizda “O‘zbekiston Respublikasi faxriy donori” ko‘krak nishoni ta’sis etilgan. Qonunchilikka kiritilgan o‘zgartishlarga ko‘ra, bu nishon sohiblariga bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravari miqdorida pul mukofoti beriladi. Ular har yili o‘zi istagan vaqtda mehnat ta’tiliga chiqish, shahar transportidan bepul foydalanish va sanatoriya yo‘llanmalarini navbatsiz olish huquqiga ega bo‘ladi.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

SEVGI VA SADOQAT DOSTONI

Saida Zunnunova — atoqli shoira, o‘zbek adabiyoti tarixida o‘zining nozik hissiyotlarga boy she’rlari, samimiy obrazlari va yurakdan chiqqan satrlari bilan alohida o‘rin egallagan ijodkor. O‘zbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi Said Ahmadning rafiqasi. Bu juftlikning birgalikda bosib o‘tgan hayot yo‘li 27 yil davom etgan, aksariyat qismi esa ayriliq, hijron, tuhmat va azob-uqubatlar qurshovida kechgan. Albatta, bulutlar tarqalib, oila uzra quyosh nur sochgan kunlar ham bisyor bo‘lgan. Saida opaning vafotidan keyin Said Ahmad yana 30 yil umr ko‘rdi, ijod qildi. Natijada ularning hayoti muhabbat va sadoqat ramzi, sevgi dostoni o‘laroq tarixga kirdi.

* * *

Said Ahmad xotiralaridan:

— *Men Katta Farg‘ona kanali qurilishi davrida yoshlar gazetasida muxbir bo‘lib ishlardim. Bir kuni andijonlik yosh shoira Saida Zunnunova bilan uchrashib qoldik. U mendan bir nechta kitob so‘radi. Menda ular yo‘q edi, lekin do‘stimdan oldim va Saidaga berib yubordim. Kitoblar shu bo‘yi unda qolib ketdi... Oradan bir qancha vaqt o‘tgach, uyimdagilar Saidaning yaqinlari bilan ko‘rishishdi va to‘yimiz 1949-yilning 28-noyabr sanasiga belgilandi...*

Biroq ularning baxti uzoqqa cho‘zilmadi. Said Ahmadning eslashicha, juda og‘ir kunlarni boshdan kechirgan kezlari Saida opa ko‘pincha bir gapni takrorlar edi: “Aftidan, men mashaqqatlarni ko‘tarish uchun yaralganman...”. Hatto to‘yi kuni ham oqshom ko‘ylagini motam libosiga almashtirgan: 1949-yilning 28-noyabr kuni kelinning suyukli ukasi Nasibjon 17 yoshida vafot etadi. Onasi Sabohatxon aya qizining to‘yida davron surish o‘rniga o‘g‘lining dafn marosimini o‘tkazish uchun Andijonga qaytib ketadi.

* * *

Saida Zunnunova 1926-yili Andijon shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. O‘rta maktabni bitirgach, Andijon pedagogika institutiga o‘qishga kirdi. So‘ng O‘rta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetida o‘qidi. Turli vaqtlarda “Gulxan” jurnali, “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida adabiy xodim, Badiiy adabiyot nashriyotida muharrir hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo‘lib ishladi.

Shoiraning ilk she’ri 1945-yili Andijon viloyati “Paxta fronti” gazetasida bosilgan. “Qizingiz yozdi” nomli ilk she’rlar to‘plami esa talabalik yillarida nashr etilib, she’riyat muxlislari e’tiborini qozondi. Shundan keyin uning “Yangi she’rlar”, “Gullar vodiysi”, “Qizlarjon”, “She’rlar”, “Bir yil o‘ylari”, “Nilufar” she’riy to‘plamlari e’lon qilindi.

Shuningdek, u go‘zal lirik she’rlar bilan birga “Sodiq va Anor”, “Xayrixon”, “Surat bilan suhbat”, “Qo‘shnilarim” singari dostonlar ham bitdi. Saida Zunnunova bu asarlarida inson ruhiyatining nozik qirralari va tebranishlari, tuyg‘u va kechinmalari, dardu hasrat va orzu-armonlarini mahorat bilan ifodalay oluvchi shoira sifatida shakllanganini namoyish etdi.

Saida Zunnunova o‘zbek xotin-qizlari hayotini o‘rganish, ular turmushidagi mashaqqatli jihatlar va murakkabliklarga jamoatchilik e’tiborini jalb etish niyatida oila va muhabbat mavzusida bir qancha hikoya va qissalar yozdi. Uning “Gulbahor”, “Povest va hikoyalar”, “Gulxan”, “Do‘stlik”, “Qanot”, “Olov”, “Ko‘chalar charog‘on”, “Bo‘ylaringdan o‘rgilay” singari nasriy kitoblarida xotin-qizlar hayoti haqqoniy badiiy tajassumini topdi. Ayniqsa, “Yangi direktor”, “Olov”, “Odamlar orasida” qissalarida Saida Zunnunova eskilik sarqitlarini fosh etish niqobi ostida sovet jamiyatidagi illatlarni keskin ochib tashladi. Uning “Ona” va “Ko‘zlar” nomli pyesalari ham bor” deb yozgan edi akademik Naim Karimov.

* * *

Said Ahmad xotiralaridan:

— *Saida ish stoli ustida biror narsa yozganini eslay olmayman. U bir qo‘li bilan qozonda ovqat pishirishi, boshqa qo‘lida she’r yozishi mumkin edi yoki bir qo‘lida beshik tebratib, tizzasiga daftar qo‘ygancha yozardi va yozardi... Uyda bir emas, uchta yozuv stoli bor edi, u esa duch kelgan yerda yozib ketardi — deraza ostida yoki dazmol stolida. Ba’zi she’rlarini u oynoma muqovasida yozishni boshlagan va telefon daftarida davom ettirgan. So‘ng ularning barini to‘plab, ikki nusxada bosma moshinada terib chiqqan.*

* * *

Adiblar xiyobonida Said Ahmad va Saida Zunnunovaga haykal o‘rnatilgan. Bu oddiy haykal emas. U metin iroda, sadoqat va vafo, buyuk muhabbatga qo‘yilgan timsoldir. Boshqacha aytganda, o‘tgan asrning o‘rtasida boshlangan sevgi va sadoqat dostonining davomi. Ikki ijodkor sevishib turmush qurgach, hech qancha vaqt birga yashamay, Said Ahmad “xalq dushmani” sifatida qamaladi.

Yozuvchi tutqunlikda Jezqozg‘on (Qozog‘istonning Qarag‘anda viloyati) qamoqxonasidan turmush o‘rtog‘iga ko‘plab maktublar yozadi. Ular Saidaning majruh ko‘ngliga, jarohatiga malham bo‘lib, uning qorong‘i hayotini bezadi. O‘z navbatida, Saida yozgan maktublar ham oshiq mahbusning hijron dardini oz bo‘lsa-da, yengillatishga yordam berdi. Eng muhimi, xat yozuvchi ham, xat oluvchi ham ijodkorlar edi. Shuning uchun ko‘p maktublarda ijodga sadoqat, ustoz-shogirdlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, hamdardlik hissi ufurib turadi.

Bir xatida Said Ahmad yosh adibaga: “Kaptar” hikoyangizni o‘qidim, yaxshi chiqibdi. Tilni silliqlang, jumlalarni qisqaroq tuzing”, deb maslahat bersa, boshqa bir maktubida o‘zining kitob boshlagani haqida yozadi. Qamoqda o‘tirgan bo‘lsa ham o‘zbek adabiyoti, adabiy jarayondan boxabarligi seziladi.

Xat — ko‘ngil oynasi, inson qalbi unda aks etadi. Adibning xatlarida qalb kechinmalari, ruhiy iztiroblar yorqin namoyon bo‘lgan. Said Ahmad ayriliqning bir yilu bir oyida yozgan maktubida sevgan yoridan minnatdorligi, o‘zi g‘am-alamda bo‘lsa-da, uning ko‘nglini ko‘tarish ruhi kuchli ekani ko‘rinadi: “Daryolar va sahrolar ortida qolib ketgan g‘arib maskanimni obod qilib, taqdirning hamma og‘ir jabru jafolar yukini o‘zining ojiz yelkasida muttasil ko‘tarib kelayotgan munis, mushfiq, mehribon onamni ovutib o‘tirganingiz uchun sizdan nihoyatda minnatdorman”.

Said Ahmad tuhmat balosiga qolib, boshiga mushkul ishlar tushgan bo‘lsa-da, ayriliqda yaxshi kunlarga ishonib yashaganidan bu maktublar guvohlik beradi: “Tuhmat loyqadek quyiga cho‘kmog‘i, haqiqat buloq suvidek qaynab yuzaga chiqmog‘iga ishongan kishi hech qachon umidsiz bo‘lmaydi. Yaxshi kunlarning birida yuz ko‘rishmoqqa umidim katta”.

Saida Zunnunova yozgan har bir she’rini, hikoyasini Said Ahmadga yuborib turgani, ular hijronda ham ijod jarayonidan birbirini xabardor qilib turgani maktublardan ayon.

> **Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari Farida Afro‘z Saida Zunnunovaning hayoti va ijod yo‘li, boy ma’naviy merosi haqida so‘z yuritdi. Filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev ustoz-shogird an’analari, xususan, Asqad Muxtorning Saida Zunnunovadagi iqtidorni ilg‘agani va uni adabiyot bo‘stoniga olib kirgani haqidagi qiziqarli ma’lumotlar bilan o‘rtoqlashdi.**

* * *

Qora kuchlar Said Zunnunovaga turmush o‘rtog‘idan voz kechish talabini qo‘yadi. Qat’iyatli ayol turmush o‘rtog‘idan voz kechmaydi. Buning uchun shoirani o‘qishdan haydashadi, ishdan bo‘shatishadi. Endigina tanilib borayotgan ijodkorning she’rlarini chop etishmaydi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov xotirasidan:

— *Yozuvchi Said Ahmad qamalgach, shoira Saida Zunnunovani ham siquvga oladilar. Yozuvchilarning uyushmasida majlis qilib, “Yo erim xalq dushmani, undan voz kechaman” deb tilxat yozib berasan yoki yozuvchilar safidan o‘chirilasan” deb shart qo‘yadilar.*

O‘sha mash’um yillarda erining “xalq dushmani” ekanini tasdiqlab, gazetaga yozib chiqqanlar ham, erini qamatib yuborganlar bilan “apoq-chapoq” bo‘lib ketgan xotinlar ham bo‘lgan… Balki shoirani o‘rtaga olib talagan “hamkasblar” Saida Zunnunovadan ham shuni kutgandir. Ammo Saida opa boshqacha yo‘l tutgan.

— *Mayli erimni “xalq dushmani” deyishingiz mumkin. Ammo mening ham bitta shartim bor. Meni erim bilan yuzlashtiringlar! Erim o‘z og‘zi bilan “Ha, men xalq dushmaniman”, desa, o‘shanda ishonaman!*

Shoirani haqorat qiladilar. Yozuvchilar uyushmasidan haydaydilar. Asarlarini bosishni taqiqlab qo‘yadilar…

Shunda Said opa kelinlik bisoti — tilla taqinchoqlarni sotib, mashinka xarid qiladi. Qozoq adibi Muxtor Avezovning davlat nashriyotida chiqayotgan “Abay” romani tarjimasini mashinkadan chiqaradi va mehnati evaziga haq olish uchun nashriyotga boradi...

* * *

Saida Zunnunova keksa qaynonasi bilan birga yashaydi. Ertangi kuniga, turmush o‘rtog‘ining kelishiga ishonadi. Qilingan nohaqliklar, kamsitishlarga javoban ko‘zidagi yoshini ko‘rsatmay, o‘zini beparvo tutgan. Metindek bardosh bilan barcha alamni ichiga yutgan. Turmush o‘rtog‘ining nohaq emasligiga kuchli ishongan.

Vaqt o‘tib, tuzum o‘zgardi, adib oqlandi. Shoira boshidan kechirgan, faqat o‘zigagina ayon holatlarni “Vaslingning umidida dunyodan o‘tib borgum, Qanoatda Saida filcha bo‘lurmi, hay-hay” deb yozgan satrlarida izohlashga harakat qildi. Bu dardli she’r hozir xalqimizning sevimli qo‘shig‘iga aylangan.

So‘ng juftlik baxtli hayot kechirdi. Biroq bu baxtning umri nihoyatda qisqa bo‘ldi. Ajal shoirani Said Ahmaddan ajratdi. Adib 30 yil Saidasiz yashadi. Metin irodali, so‘zida sobit, ahdiga vafodor ayolga yozuvchimiz ham umrining oxirigacha sadoqat saqladi.

Said Ahmad xotiralaridan:

— *Bu 1977-yilning bahorida bo‘lgan. Martning o‘rtalarida o‘rik gulladi. Men o‘rikning gullagan shoxidan birini uzdim, olcha tagida gullagan binafshalarni terdim va endigina bosmadan chiqqan “Saralangan asarlar”ning ikkinchi bobi bilan Saidaxonning oldiga kasalxonaga bordim. U avval nashriyot siyohining isi hali tarqamagan ikkinchi bobni varaqladi. So‘ng binafshalarni hidladi. Undan keyingina o‘rik shoxidagi gullarga qaradi.*

— *Bu hovlimizdagi o‘rikning gullarimi?* — *deb so‘radi u.*

— *Ha.*

— *Marg‘ubaning darvozasidagi jiyda hali gullamadimi?*

— *Bir oydan so‘ng gullaydi, — deya javob berdim.*

— *Men esa kasalxonadaligimda gullab qo‘ymasmikan, deya xavotirlandim. Yaxshiyamki, u gullaganda men uyda bo‘laman...*

Jiyda gullaganda Saidaxon olamdan ko‘z yumgandi... Bir oydan so‘ng gullagan jiyda shoxini yuldim va uning qabri ustiga qo‘ydim”.

Saida Zunnunova 1977-yili 51 yoshni qarshi olib, dunyodan ko‘z yumdi.

* * *

Adabiyotimizdagi ikki buyuk namoyandaning hayoti, muhabbati va sadoqati aks etgan “Said bilan Saida” filmi kino ixlosmandlari e’tiboriga havola etilganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. O‘zbekiston san’at arbobi Shuhrat Abbosov hamda Nodira Husanxo‘jayeva (Said Ahmadning qizi) senariysi asosida 2018-yili ekranlarga chiqqan film “O‘zbekkino” milliy agentligi buyurtmasiga ko‘ra rejissyor Nozim Abbosov tomonidan suratga olingan.

Chin muhabbat va sadoqat har qanday sharoitda ham qiymatini yo‘qotmaydi. Sobiq tuzumning qonli qatag‘onlaridan minglab insonlar qatori azob chekkan O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad va uning suyukli rafiqasi, benazir shoira Saida Zunnunovaning hayot yo‘li haqida hikoya qiluvchi kinokartina qisqa muddatda tomoshabinlar qalbidan chuqur o‘rin oldi.

Chunki ona Vatanga sadoqat, mehnat va baxt, muhabbatni haqgo‘ylik bilan kuylagan shoiraning lirik she’rlari, nasriy asarlari adabiy xazinamizni boyitib turibdi. Uning hassos nazmi, samimiy nasri o‘zbek kitobxonlarining ma’naviy mulkiga aylangan. Shuningdek, adiba asarlarini ko‘plab qardosh xalqlar o‘z ona tilida sevib o‘qimoqda.

* * *

Kuni kecha poytaxtimizda atoqli adiba Said Zunnunova tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi. Adabiyot ixlosmandlari avval Adiblar xiyobonida Said Ahmad va Said Zunnunova haykali poyiga gul qo‘yish marosimida ishtirok etib, ijodkor juftlik xotirasiga hurmat bajo keltirdi. So‘ng tadbir O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining katta majlislar zalida davom etdi.

Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari Farida Afro‘z Said Zunnunovaning hayoti va ijod yo‘li, boy ma’naviy merosi haqida so‘z yuritdi. Filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev ustoz-shogird an’analari, xususan, Asqad Muxtorning Said Zunnunovadagi iqtidorni ilg‘agani va uni adabiyot bo‘stoniga olib kirgani haqidagi qiziqarli ma’lumotlar bilan o‘rtoqlashdi. G‘afur G‘ulom uy-muzeyi direktori Olmos Ahmedova va boshqalar adiblar haqidagi yorqin xotiralarni gapirib berdi. O‘zbekiston xalq artisti Zulayho Boyxonova shoira qalamiga mansub “Vaslingning umidida” deb boshlanuvchi mashhur she’rning qo‘shiq bo‘lish tarixi haqida so‘zlab, xalqimiz qalbidan joy olgan ijod namunalaridan yig‘ilganlarni bahramand qildi.

— Talabalik davrimdan “Bir yil o‘ylari” kitobchasi bilan hayotimga kirib kelgan, nozikta’b, malohatli jasoratga uyg‘un shoira bilan uchrashish menga nasib etmadi, — deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Muhtarama Ulug‘ova. — Bebaho xotiralar — audio, video yozuvlar orqali shoiraning qiyofasi, ayniqsa, ovozi dilimga o‘rnashib qolgan. Har gal asarlarini o‘qiganimda jilosi baxmalga, arqoq o‘rishi ipakka andazadek tuyuladigan malham ovozini eshitaman.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-246.
30829 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo‘ronov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 22:25

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05